

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI

“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH” KAFEDRASI

**Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatida badiiy ijodiy jamoalarning  
o‘rni mavzusidagi**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va boshqarish”  
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi 4 kurs talabasi  
Irgashev Qobil Nimatullayevich \_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va boshqarish”  
kafedrasini f.f.d., professor S.S.To‘ychiyeva

\_\_\_\_\_  
(imzo)


Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi. Kafedra majlisining

26 sonli bayonnomasi “17” may 2018 yil

**TOSHKENT-2018**

### Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti”  
fakulteti dekani  
J.Mamatqosimov



20 18 yil “ 14 ” Ushbu

“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish”  
kafedrasini mudiri  
B.Salaydinov



20 18 yil “ 12 ”

## MUNDARIJA

|   |           |
|---|-----------|
| <b>Kirish.....</b>  | <b>3</b>  |
| <b>I Bob. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarni tashkil etilishi va ularning shakllanishi.....</b>             | <b>6</b>  |
| 1.1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining vujudga kelishi va ularning faoliyati.....   | 6         |
| 1.2. Badiiy ijodiy jamoalari va ularni tashkil qilinishi.....   | 13        |
| <b>II Bob. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarni tashkil etishni shakllantirishning ijtimoiy omillari.....</b> | <b>21</b> |
| 2.1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarining dolzarb masalalari.....  | 21        |
| 2.2. Ommaviy tadbirlarni tashkil qilishda badiiy ijodiy jamoalari dasturlaridan foydalanish shakllari.....                                  | 41        |
| <b>Xulosa.....</b>  | <b>54</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>  | <b>61</b> |
| <b>Ilova.....</b>   | <b>64</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasida madaniy hayotning ko‘p qirraligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlardan biri bu madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil qilish va ularning faoliyat tartibini belgilashdan iborat hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagi PQ-1920-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qarori<sup>1</sup> asosida zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalarning faoliyatini tashkil qilish va ularni shakllantirish bilan bog‘liq masalalar va yuzaga kelgan muammolarni ilmiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki,

Birinchidan, Respublikadagi havaskorlik jamoalarning faoliyati bundan keyin madaniyat va aholi dam olish markazlarida shakllantirish muhim ekanligi taqozo qilmoqda;

Ikkinchidan, Madaniyat va aholi dam olish markazlarini mavjud badiiy ijodiy jamoalar faoliyati bilan uyg‘un holda tashkil qilish borasida amalga oshirish ishlarini aniqlash;

Uchinchidan, aholining bo‘sh vaqtlari yoki dam olishlarida milliy qadriyatlarni o‘zida mujassam qilgan havaskorlik jamoalari ishtirokini yo‘lga qo‘yishning dolzarligini belgilab qo‘yilishi muhim hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyunda "2013 – 2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori / Xalq so‘zi. 2013 yil 26 iyun.

**Tadqiqotning obekti va predmeti.** O‘zbekistonning mustaqillik sharoitida tashkil etilgan Madaniyat va aholi dam olish markazlari tadqiqotning obekti hisoblanadi.

Ushbu Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat olib boradigan havaskorlik jamoalari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi badiiy ijodiy jamoalarining faoliyatini tashkil qilishning shakllarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- madaniyat va aholi dam olish markazlarining tashkil qilinishi va ularning faoliyatini tahlil qilish;
- madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalarini faoliyatini tashkil qilinishining nazariy asoslarini tadqiq qilishi
- O‘zbekistonda havaskorlik jamoalarining faoliyatini o‘rganish va ularni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarining havaskorlik jamoalarni ishlash tizimini va imkoniyatlarini tadqiq qilish;
- madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlarni havaskorlik jamoalarga jalb qilish va uning ijtimoiy omillari tadqiq qilish.

**Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid chop etilgan adabiyotlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1.Madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyatini tadqiq qilishga oid tadqiqotlar;
- 2.Havaskorlik jamoalarini tashkil etishning shakllariga oid asarlari

**Birinchi guruhga** oid adabiyotlar ko‘proq mustaqillik davrida o‘zbek milliy madaniyatidagi islohotlar va bu madaniy jarayonlarda Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi o‘zgarishlar haqida ko‘proq fikr yuritilgan<sup>2</sup>.

**Ikkinchi guruhga** havaskorlik jamoalar faoliyatini tashkil qilishning shakllari borasida olib borilgan asarlar, tadqiqotlar berilgan<sup>3</sup>.

Ammo yuqoridagi tadqiqotlar tahlilidan mustaqillik yillarida madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalarining

tashkil etishning shakllari va ularning repertuarlarining turli darajalari, yoshlarning milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash kabi bir qator muhim masala va muammolar tahlil qilinmagan.

#### **Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.**

Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotchi tomonidan ilmiylik, holislik, tarixiylik tamoyillariga tayanildi. Asosiy e‘tibor yuz bergan madaniy jarayonlarning o‘zaro dialektik aloqadorligi va bir tizimligiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqloq g‘oyasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Shuningdek, tadqiqotning nazariy va manbaviy asoslari Prezident I.A. Karimovning milliy madaniyati, ma‘naviyat va milliy istiqloq mafkurasiga bag‘ishlangan asarlaridagi ko‘rsatmalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish va havaskorlik jamoalarini shakllantirishga oid qarorlarida bayon etilgan vorisiylik va tadqiqot olib borishda yagona obektiv usuldan foydalanish ham belgilab berdi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** BMIda ilk bor mustaqillik yillarida tashkil etilgan madaniyat va aholi dam olish markazlari havaskorlik jamoalarini tashkil qilishning tashkiliy jihatlari va shakllari,

---

<sup>2</sup>Alimasov V.A. O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida madaniy-ma‘rifiy muassasalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Fals. fan. dokt. dis. -T., 2001; Bekmurodov M. Tashkilot madaniyati va rahbar ma‘naviyati. – Toshkent., 2001; Alimova SH.X. “Madaniy-ma‘rifiy faoliyat asoslari”. – Toshkent., 2007;

<sup>3</sup>Murodov M., Mahmudova K. O‘zbek folklor etnografik ansambllari. – Toshkent., 1998; Yo‘ldosheva S. Folklor etnografik jamoalari uslubiyati. – Toshkent: Navro‘z, 2014;

yoshlarning ma'naviyati shakllantirish borasidagi jarayonlari tahliliy asosda yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosda bo'lib, madaniyat va san'at muassasalarini tashkil qilish va boshqarish yo'nalishiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutda ijtimoiy madaniy faoliyat bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etishda foydalanishi mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalarini tashkil etishning bosqichlarini aniqlash;
- O'zbekistonda Madaniyat va aholi dam olish markazlarining ish faoliyati, o'zgarishlar salohiyati ham ularning yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini mavjud ekanligi aniqlandi;
- O'zbekistonda havaskorlik jamoalarini vujudga kelishi va ularning faoliyati ilmiy tarzda o'rganilib, nazariy jihatdan tahlil qilindi;
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalari faoliyatida yoshlarning ijodiy mahoratini tarbiyalashning pedagogik shart sharoitlari aniqlandi;
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalar faoliyatida tashkil etishning shakllari ko'lami va ularning parametrlari aniqlandi;
- Muammoni hal qilish uchun unga ijodiy yondashish, eng qulay shakllar, metodlar, usullar, vositalarni izlash, mazmunini aniqlash orqadi samarali pedagogik tizim ishlab chiqildi.

**BMI tarkibining qisqacha tavsifi.** Tadqiqot ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iboratdir.

## **I Bob. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarni tashkil etilishi va ularning shakllanishi**

### **1.1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining vujudga kelishi va ularning faoliyati**

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy, iqtisodiy sohalar kabi madaniyat yo‘nalishida ham ko‘pgina islohotlar o‘tkazildi. Sobiq ittifoq tuzumi davrida tashkil qilingan madaniy klublar, istirohat parklari sinfiylik va kommunistik g‘oyalar asosida shakllantirilgan. Shu bois, istiqlol davrida ushbu madaniyat muassasalari o‘rniga yangi zamonaviy tipdagi madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil qilindi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari, sport inshootlari faoliyatini yanada yaxshilash va yosh avlodning kun sayin o‘sib borayotgan madaniy-ma‘rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-sonli qarori qabul



qilindi<sup>4</sup>. Qarorda 3 tipda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etilishi koʻzda tutilgan, ular:

I tipda – xizmat koʻrsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq boʻlgan va kamida 400 oʻrindiqli tomosha zaliga ega boʻlgan holda shaharlarda va tumanning maʼmuriy markazlarida;

II tipda – xizmat koʻrsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq boʻlgan va oʻrindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega boʻlgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat koʻrsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq boʻlgan va oʻrindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega boʻlgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Ushbu qaror asosida 2013-2014 oʻquv yilidan Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutida “Madaniy dam olish tadbirlari tashkilotchisi” taʼlim yoʻnalishini ochish boʻyicha taklif berildi.

Madaniy dam olish insonning boʻsh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega boʻlishda maʼnaviy - estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sogʻlom boʻlishida muhim omillardan hisoblanadi.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini taʼminlash bilan birga, ularni har tomonlama yetuk inson boʻlib kamolga yetishishlariga koʻmaklashishdan iboratdir.

Madaniy dam olish va boʻsh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik koʻpki, ular alohida turkumlarga ajratiladi.

*Birinchi turkumga* dam olishning eng oddiy shakllari — kam harakatli hordiq chiqarish charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin uyda yotib charchoq chiqarish, koʻcha, parklar, xiyobonlardagi oʻrindiqlarda, uyda divan, stulda oʻtirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilar kiradi. Bu hordiq chiqarishni baʼzida «faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti-vaqti bilan shunday «passiv» dam

---

<sup>4</sup>Xalq soʻzi. 2013 yil 26 iyun.

olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko‘proq vaqtni faol dam olishga sarflash kerak.

*Ikkinchi turkum* dam olish shakllari madaniy-ma’naviy boyliklarni egallash, ya’ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatr va klublarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilardir.

Yoshlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishda nashriyotlar, ijodiy uyushmalar, ko‘ngilli jamiyatlar, san’at va madaniyat muassasalari muhim rol o‘ynaydi. Ular foydalaniladigan ish shakllari rang-barang:

ma’ruza, axborot, suhbat, siyosiy o‘qish, konsultatsiya, seminar, munozara, konferensiya, viktorina, ko‘rgazma, konkurs, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, og‘zaki jurnal, tematik kecha, konsert, spektakl, ommaviy tomoshalar, xalq sayillari, bayramlar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya sifatida foydalansa bo‘lar ekan. (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug‘ullanish, sport bilan mashg‘ul bo‘lish, do‘stlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish, san’at asarlaridan bahramand bo‘lish va hokazolar kiradi).

Hozirgi davrda yoshlar ma’naviyatiga alohida e’tibor berilmoqda. Yoshlar ongida va ma’naviy hayotida bo‘shliqning paydo bo‘lishiga qarshi mahalliy madaniyat muassasalarining faoliyati g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog‘lari mahalliy aholi va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga va ularni g‘oyaviy, ma’naviy kamol topishiga yanada samarali xizmat qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qaroriga muvofiq 2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha rejalashtirilgan islohotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tumanlari (shaharlari) bo‘yicha 1777 ta madaniyat uylari va klub muassasalari negizida, ular tomonidan ko‘rsatiladigan madaniy-ommaviy xizmatlardan keng

aholi qatlamlarining foydalanishi ta'minlanishini hisobga olgan holda, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarini (ulardan 38 tasi - imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun) aniqlash va joylashtirish sxemasini tasdiqlash.

– O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan taqdim etilgan buyurtma va texnik talablar asosida madaniyat va aholi dam olish markazlarining uchta namunaviy loyihalarini tegishli loyihalash institutini jalb etgan holda ishlab chiqish, bunda markazlarning qiyofasi va intererining arxitektura-rejalashtirish yechimlariga yagona yondashuvlarni nazarda tutish.

– Madaniyat va aholining dam olish markazlarining joylashgan o'rniga va xizmat ko'rsatiladigan aholiga bog'liq holda ularning I, II, III tiplari namunaviy shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlari rahbarlari va ijodiy hodimlarining lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– Madaniyat va san'at markazlarida to'garak ishlarining har bir turi bo'yicha yangi, zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

– To'garaklar, studiyalar, havaskorlik birlashmalari badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlari uchun yangi repertuar to'plamlari ishlab chiqish va ular bilan ta'minlash.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarini zamonaviy axborot resurslari hamda davriy matbuot nashrlari bilan ta'minlash.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarining ustavdagi vazifalariga muvofiq bo'lgan (ko'p funksiyali zali mavjud bo'lgan) mos binolarni qidirib topish va ajratish.

– 2013-2018 yillarda madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash hamda zamonaviy asbob-uskunalar va anjomlar bilan jihozlashning manzilli ro'yxatlari asosiy parametrlarini O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi Madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari axborot-tahlil departamenti bilan kelishish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarini, shu jumladan 2013 yilda 37 ta obektni mukammal ta'mirlash va jihozlashning aniqlashtirilgan har yilgi mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini shakllantirish va tasdiqlash.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash va jihozlashning mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini, keyinchalik tegishli protokol bilan tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritgan holda, har yili Iqtisodiyot vazirligiga va Moliya vazirligiga taqdim etish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarini muassasalarning turlari bo'yicha jihozlash normativini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– Maqbullashtirilayotgan madaniyat uylari va klub muassasalaridagi mavjud, foydalanishga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarini yangidan tashkil etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining balansiga belgilangan tartibda o'tkazish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarini tasdiqlangan normativlarga muvofiq zarur musiqa asboblari, mebellar va anjomlar bilan jihozlashni hisobga olgan holda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi yagona buyurtmachi xizmatlari tomonidan madaniyat va aholi dam olish markazlari obektlarini mukammal ta'mirlash uchun tanlov (tender) savdolari o'tkazish.

– Mahalliy budjetlar mablag'lari, shu jumladan madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar, mahalliy byudjetlarning yil boshidagi bo'sh qoldiqlari, I–III choraklar yakunlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilishi, mahalliy byudjetlar xarajatlari bo'yicha tejash natijasida bo'shaydigan mablag'lar, shuningdek jalb etiladigan homiylik mablag'lari va boshqa mablag'lar hisobiga madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) va jihozlashga mablag'lar ajratish.

- Madaniyat va aholi dam olish markazlariga ularning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, madaniy-ommaviy tadbirlarni sifatli
  - o‘tkazish, shu jumladan transport xizmati ko‘rsatish uchun ularga zarur shart-sharoitlarni tashkil etish masalalarida ko‘maklashish.
- Madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish natijasida bo‘shaydigan binolarni mahalliy hokimliklar balansiga qabul qilib olish hamda kelgusida ulardan samarali foydalanish, shu jumladan ularni birja va birjadan tashqari savdolar orqali sotish.
- Yangidan tashkil etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlariga madaniyat uylari va klub muassasalari rahbar xodimlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazish yo‘li bilan tanlov asosida malakali rahbar kadrlarni tanlab olish bo‘yicha respublika komissiyasini tuzish.
- Attestatsiya o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizomni ishlab chiqish, respublika komissiyasi tarkibini tuzish va tasdiqlash, shuningdek madaniyat va aholi dam olish markazlarining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda rahbar xodimlarni yuqori talabchanlik, qat’iyatlilik va xolisona baholash vaziyatida attestatsiyadan o‘tkazish.
- Madaniyat uylari va klub muassasalari sonini maqbullashtirish natijasida bo‘shab qoladigan xodimlarni ishga joylashtirish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rish va ko‘maklashish.
- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida Toshkent milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida madaniyat va aholi dam olish markazlari uchun tayyorlanadigan ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarini yo‘nalishlar va mutaxassisliklarni takomillashtirish.
- Ko‘chma treninglar va mintaqaviy seminarlar o‘tkazish yo‘li bilan madaniyat va aholi dam olish markazlari mutaxassislarining malakasini oshirish.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishga musiqa va san’at maktablari, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarini ko‘pi bilan 0,5 stavka hisobidan, kontrakt asosida jalb etish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarida oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha bitiruvchi talabalarining, shuningdek madaniyat va san'at kasb-hunar kollejlari qatnashchilarining o'quv, ishlab chiqarish hamda diplomdan oldingi amaliyotini o'tashini (stajirovkasini) ta'minlash.

– Har bir markazning ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi davlat siyosati asosiy yo'nalishlarini bajarishga qaratilgan yillik kalendar rejalari - tadbirlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– «Mustaqillik», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni», «Konstitutsiya kuni», «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni», «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» milliy va kasb bayramlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga madaniyat va aholi dam olish markazlarining yanada keng jalb etilishini ta'minlash.

– Madaniyat va san'at, ma'naviy-ahloqiy rivojlanish hamda milliy o'z o'zini anglashning o'sishi sohalarida O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlarni keng va to'liq ochib berishni ta'minlovchi ko'riklar, ko'rgazmalar, festivallar va tanlovlarni aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda tashkil etish va o'tkazish.

– Aholi, aynisa yoshlar o'rtasida O'zbekistonning boy ma'naviy va madaniy merosini saqlash va targ'ib etishga yo'naltirilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Chunonchi, folklor jamoalarini, milliy hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etish.

– O'quvchilar va talabalarning yozgi ta'tillari davrida bolalar va yoshlar uchun madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini o'tkazish.

– Qo'shimcha pulli xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish, shu jumladan madaniyat va aholi dam olish markazlarida pulli to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari konsertlarini tashkil etish.

– Dastur doirasida bajarilayotgan tadbirlarni, madaniyat va aholi dam olish markazlari qatnashchilarining yutuqlari va muvaffaqiyatlari to'g'risidagi

materiallarni ommaviy axborot vositalarida hamda Internet tarmog'ida muntazam yoritib borish.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy odob, fidoyilik fazilatlari, eng asosiysi esa ijodiy kobiliyat shakllantiriladi. Bunda asosan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni va roli muhim hisoblanadi. Respublikada faoliyat yuritib kelayotgan havaskorlik jamoalari, folklor etnografik ansambllari endi madaniyat va aholi dam olish markazlarida alohida tizim sifatida shakllantirildi. Bu esa aholini bo'sh vaqtda madaniy dam olish shakllarida milliy qadriyatlarning ta'sirini kuchaytirishni maqsad qilingan.

## **1.2. Badiiy ijodiy jamoalari va ularni tashkil qilinishi**

Havaskorlik va uning bir ko'rinishi bo'lgan folklor etnografik jamoalari hozirgi kunda dunyoning ko'pgina xalqlari madaniyati uchun xos bo'lgan fenomenal hodisa hisoblanadi. Bu hodisani o'rgangan ko'pgina tadqiqotchilar folklor va havaskorlik jamoalarini bir narsa, ya'ni jamoalar faoliyati folklorning bir ko'rinish, tarkibiy qismi sifatida baholaydilar. Istiqlool tufayli havaskorlik jamoalarni faoliyati endi madaniyat va aholi dam olish markazlarida davom etadi. Bu esa bu havaskorlik jamoalarni davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlaridan foydalanishni osonlashtiradi.

Havaskorlik jamoalarining asosiy vazifasi qadimdan ana'anaviy tarzda bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, urf odatlar, marosimlar, milliy kuylar va qo'shiqlar, milliy merosimizni o'rganib, hozirgi fuqarolar va yoshlarga yetkazib berishdan iborat.

Istiqloлга erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetni belgilaydigan noyob ma'naviy meros, xususan, milliy qadriyatlar,

folklor an'analari saqlash, targ'ib qilish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni tadqiq qilib. Ularni yanada rivojlantirish, xalq ijodiyotining intilish arafasiga kelib qolgan tur va janrlarni tiklab, keng ommalashtirish, ayniqsa, o'zbek xalq ijodi durdonalarini dunyoda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oqibatda, jahon ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analar bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylantirildi.

Bugungi tarixiy folkloriy jarayon o'ziga xos taraqqiyot tamoyillarlariga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakat istiqlolga erishgandan keyin boshlangan keng ko'lamdagi ma'naviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folklor yodgorliklar yodgorliklarning jahonshumul ahamiyat xususida so'z yuritish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan janrlarini qayta tiklash, ijrochilik an'analarin rivojlantirishning misl ko'rilmagan imkoniyatlari yuzaga keldi. Natijada joylarda faoliyat olib borayotgan folklor etnografik yoki havaskorlik jamaolar soni ko'paydi. Nafaqat Surxandaryo, Qashqadaryo va Horazm viloyatida, balki baxshichilik maktablarining jonli an'analari yo'qolib ketgan deb hisoblangan Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ham baxshi va shoirlar yetishib chiqa boshladi. O'zbek marosim folklori, askiyachilik, qiziqchilik tomosha san'ati, xalq hunarmandchiligining qadimiy an'analari tiklandi.

Folklor asarlarni jamoa bo'lib ijro etish an'anasi ham uzoq tarixga ega. Uzoq o'tmishda guruh guruh bo'lib xalq sayllarida, ommaviy bayramlarida turli tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'g'irchoqbozlari, dorbozlar, raqqos va xonandalarning ijodiy yuushmalarini havaskorlik jamoalarining o'ziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyat professional bo'lmay, balki havaskor ijrochilar bo'lib, ularning repertuari ham sof xalqonadir.

XX asrning 20 yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamarahonimlarning bevosita tashabbusi hamda boshchiligida o'zbek etnografik ansambli mashhur



“ko‘k ko‘ylak” ansambli tulidi. Bu ijodiy ansambl an’anaviy folklorni sahnaga ko‘chirgan ilk havaskorlik jamoa hisoblanadi. XX asrning 50 yillarida Urgut tumanida tuzilgan “Beshqarsak” havaskorlik jamoasi o‘zining ishtirokchilari tarkibi va repertuarining turfa xilligi haqiqiy havaskorlik jamoasini yuzaga keltirgan edi.

XX asrgacha yaratilgan o‘zbek marosim folklori janrlari o‘zining qadimiy an’analari poetik tabiati bilan ajralib turar edi. Biroq sobiq ittifoq tuzumidagi sinfiylik mafkurasi va uning qatag‘onlari natijasida xalqimizning milliy qadriyatlari, oilaviy marosimlar, shu jumladan, so‘z san’ati bilan bog‘liq badik, kinna, olqish, taqvimiy marosimlar bilan bog‘liq “Navro‘z”, “Qizil gul sayli”, “Boychechak sayli”, “Guli surh”, “YO ramozon”, “Barot keldi”, “Shohmoylar”, “Sust xotin”, “Choy momo” kabi marosimlarning aytimlari, qo‘shiqlarining matnlari xalq xotirasidan ko‘tarilishi uchun astoydil harakat qildi<sup>5</sup>.

O‘zbekiston davlat mustaqillikka erishganidan so‘ng benazir iste’dod sohibi bo‘lgan ajdodlarimiz yaratgan og‘zika badiiy ijodi an’analarini qayta tiklash, folklor asarlarni keng ommaviylashtirish, ularning tarixiy kelib chiqishi, janr xususiyatlari, badiiyati va ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini o‘rganish imkoni yaratildi. Havaskorlik jamoalarining tashkil topishi yuqoridagi masalalarni o‘rganishni va ommalashtirish, targ‘ib qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Havaskorlik jamoalari hozirgi kunda o‘z yo‘nalishi, tarixiy taraqqiyot jihatlariga ega bo‘ldi. Istiqlol sharoitidan ruhlangan soha mutaxassislari unitilgan qadriyatlarni tiklashga, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishga kirishdilar.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan “Navro‘z” bayramini nishonlash to‘g‘risida qaror chiqardi. Tarixiy jihatdan shakllangan havaskorlik jamoalari dasturidan zamon ruhiga mos udum, marosimlarda Navro‘zni ona yurtini madh etuvchi qo‘shiqlar bemisli daryoday jo‘shib kuylanmoqda. Bu esa chechan ijrochilarining ona yurtga unin qadriyatlariga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtiromining namunasidir.

---

<sup>5</sup>Ўўлдошова С. Фолклор этнографик жамоалари услубиети. – Тошкент., 2014. Б. 23.

Dastlabki kuzatishlar jamoalar repertuarida an'anaviy folklor asarlari yetakchiligini ko'rsatadi. Havaskorlik jamoalar faoliyatida qo'shiq ham, kuy ham, raqs ham, dramatik asarlar ham bor. Havaskorlik jamoalarida ko'pgina qo'shiqlar xalq yo'lida emas, bastakorlar qayta ishlovi yo'lida ijro etish mumkin. Ammo bunda so'zlarni buzish, folklor materiallarini qayta ishlash, variantlilik masalalariga ko'pincha e'tibor berilmayapti.

Jamoalar repertuarini boyitib, yangilab turmasa bo'lmaydi. O'zbek folklorlarining g'oyat boyligini nazarda tutsak, buning uchun doimo material bor. Jamoalar ayrim qo'shiqlarni vaqincha repertuaridan tushirib qoldirishi mumkin. Har bir jamoa o'z repertuari uchun material tanlaydi. Material tanlash, uni ijodiy qayta ishlashda folklorning nazariy va amaliy poetikasini, ijro yo'nalishi uslubini bilishi muhim. Bundan tashqari jamoa vakillari va rahbar tashkilotchilar uchun ma'lum jihatlar ham bor. Folklorshunoslik amaliyotidan ma'lumki, ko'pgina kishilar bilsalar ham turli sabablarga ko'ra folklor materiallarni folklorshunoslarga aytishmaydi, aytishsa ham tabiiy ijro etishmaydi. Jamoalar vakillari esa o'z muhitlari, o'zlari yaxshi bilgan kishilar bo'lgani uchun aytuvchilar ulardan tortinmaydilar va asarni butun nafosati, tabiiyligi bilan ijro etadilar.

Jamoaga kelgan har bir kish qalbida go'zallik va ijodga intilish kuchayadi. U biroz bo'lsa da, moddiy turmush tashvishlaridan xoli bo'lib, ma'naviyat dunyosiga kiradi. Bunday subektiv omillarning ham ahamiyati katta. Jamoa va uning har bir a'zosi mahoratini oshira borib, professional darajaga yetishuvi mumkin. Tabiiy salohiyati har qanday professional san'atkordan qolishmaydiganlari ko'p. Faqat ular turmushning turli tashvishlari tufayli maxsus bilim ola olmagan. Jamoalar ularning talantini chinakam xalq mulkiga aylantiradilar. Garchi tashkiliylik ko'proq shaklga tegishli bo'lsada, u havaskorlik jamoalarini tabiiy folkloriy jarayondan farqlaydigan birinchi belgidir. To'g'ri, an'anaviy folklor asarlari, masalan, dostonlar ijrosida ham tashkiliylik bo'lgan. Maxsus doston tinglash kechalari o'tkazilgan. Ammo ular o'z faoliyatini dasturlar, rejalar bilan olib borgan jamoalardan tasodifiyligi bilan farq qiladi.

Havaskorlik jamoalarning turli ommaviy sayllar, bayramlar, ko'rik tanlovlardagi ishtiroklari ular imkoniyatining naqadar kengligi va repertuarining boyligini ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston mustaqilligi, Navro'z bayramlariga bag'ishlab o'tkazilayotgan tantanalarda folklor etnografik jamoalari jahonning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan mehmonlar, teleko'rsatuvlar orqali olamga o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati, bu madaniyati, bu madaniyatning regional o'ziga xosliklarini yorqin namoyish qilmoqda. Mustaqillik davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, jamoalar repertuarida marosim bilan bog'liq xalq qo'shiqlari birinchi o'rinda turadi. Bu tabiiy holdir. Chunki xalq qo'shig'i eng ommaviy, eng xalqchil janr bo'lsa, marosimlar xalq ijodi, maishiy turmushining o'zidir. Shuning uchun ham havaskorlik jamoalari atamasini juda aniq va muvaffaqiyatli topilgan nom desak, xato bo'lmaydi.

Hozirda oilaviy folklor jamoalarining folklor asarlarini saqlash, davomiyligini ta'minlashda xizmatlar juda katta bo'lmoqda.

Ishtirokchilarining ijtimoiy kelib chiqishi, turli kasb egalari ekanligi va boshqa ko'p jihatlaridan folklor jamoalari havaskorlik jamoalardan farqlanmaydi. Farq shundaki, folklor jamoalari repertuari uning o'z nomidan kelib chiqib, asosan folklor asarlaridan iborat. Shu bois, havaskorlik jamoalarining o'z repertuarlarini folklor asarlari bilan boyitib, folklor jamolariga yoki aksincha folklor jamoasining havaskorlik jamoasiga aylanishi juda oson.

Folklor etnografik jamoalarning vakillari jamoaning oddiy a'zosigina emas, balki, keksa va o'rta yoshdagi a'zolari xalq ijodining katta bilimdonlari hamdir. Jamoalar faoliyati shuni ko'rsatadiki, ular repertuarining bir qismi nashr etilgan xalq og'zaki ijodiga oid kitoblardan o'zlashtirilgan bo'lsa, katta qismi shu jamoa a'zolari tomonidan to'plangan. Folklor etnografik jamoalari a'zolari ijrochigina emas, ayni paytda ijodkordir hamdir.

Hozirda ba'zan qattiqqo'l rahbarlar boshqaradigan jamoalarda ham muntazamlik kuzatiladi va aksincha ko'ngilchan rahbarlarning jamoasida qo'nimsizlik kuzatiladi. Folklor etnografik jamoalarini tashkil etishda birinchi

navbatda ishonish, uning aytganlariga soʻzsiz amal qilish va unga ergashish katta samara beradi.

Jamoalarni tashkil etishda rahbarlar ish uslubiga qarab 3 toifaga ajratiladi:

1. Avtoritar (yakka hokimlik) rahbar.
2. Demokratik rahbar.
3. Yakka hokimlik va demokratik xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan rahbar.

Aksariyat hollarda uchunchi toifadagi rahbarlik ragʻbatlantiriladi. Ish jarayonida har bir mashgʻulotning tashkil etilishiga qarab mashgʻulotning samarasi va koʻzlangan maqsadga erishish darajasi aniqlanadi. Koʻp hollarda rahbarlarning shaxsiy namunasi, oʻrnagi, ishtirokchilar orasiga singib ketishi, ularni ishontira bilishi va ularning hurmatini qozonishi rahbar tomonidan qoʻllaniladigan qattiqqoʻllik, qoʻyiladigan yuqori talablarni oqlashi mumkin boʻladi. Jamoaning tarkibida qoʻnimsizlikka qarshi kurashishda ragʻbatlantirish juda muhimdir. Rahbar har bir jamoa aʼzosining dangasalik qilayotgani sezib, unga dakki berishi, katta qobiliyatga ega boʻlmagan har bir qatnashchisining kichkina yutugʻini ham sezib, uni ragʻbatlantirishi lozim boʻladi. Jamoalarining mashgʻulotlari oʻzaro ishonch

sharoitida oʻtgani maʼqul. Har bir ishtirokchi oʻz ishtirok etayotgan ijodiy jarayonga va undagi oʻtgani maʼqul. Har bir ishtirokchi oʻzi ishtirok etayotgan ijodiy jarayonga va undagi oʻzining oʻrni va bajarayotgan ishning ahamiyatiga munosabat bildira olishi kerak. Rahbariyat oʻz fikrini ochiqdan ochiq ayta olishi havaskorlik jamoani mustahkamlaydi.

Jamoaning yaxlit bir koʻrinishga kelishi qatnashchilarning jamoa mashgʻulotlariga oshiqishiga, bir birlarini sogʻinishi va qadrdonlarga aylanishiga sabab boʻladi. Jamoa aʼzolarining jipslashuviga ijodiy safarlar va birgalikda uyushtirilgan sayoxatlar, mashgʻulotdan tashqari birga boʻlish imkonini yaratadigan tadbirlar katta hissa qoʻshadi. Koʻp hollarda bir hafta, oʻn kun davomida ijodiy safarda birga boʻlgan sanʼatkorlarimiz safar yakunida uzoq yillik qadrdonlarday hayrlashganini kuzatganmiz. Chunki safar kishilarning bir birini chuqurroq oʻrganishlari, sinab koʻrishlari va haqqoniy baholay olishlari uchun

imkoniyat yaratadi. Ba'zi tortinchoq kishilar bunday tadbirlardan keyin ochiq ko'ngil, hushchaqchaq bo'lib qoladilar. O'ziga bino qo'ygan, maqtanchoq kishilar esa aksincha fikrini jamlab, o'ylab gapiradigan bo'lib qolishlari ham mumkin.

Jamoa repertuarini to'g'ri shakllantirish rahbar oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Repertuarning to'g'ri tanlanishi jamoadagi ijodiy jarayonning borishi, ishtirokchilar faolligining o'sishi va pirovard natijada jamoaning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Folklor etnografik jamoalarning repertuari janr va shakl jihatidan professional jamoalarnikidan farq qilsada, ular uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Mutaxassislar jamoa repertuarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligini ko'rsatib o'tishadi:

1. G'oyaviy yo'naltirilgan, badiiy jihatdan pishiq asarlarini tanlash.
2. Gang barang janrlarini qamrab olish. Repertuarning sekin asta murakkablashib borishi.
3. Qatnashchilar imkoniyatlari, qobiliyatlari, shuningdek, ularning qiziqishlari va istaklarilarini nazarda tutish.
4. Jamoa faoliyat ko'rsatayotgan hudud, u yerdagi ishlab chiqarish yoki qishloq xo'jalik tarmog'i, shuningdek, har bir hududni tabiati bilan bog'liq asarlardan keng foydalanish.
5. Xalq ijodiyoti namunalari, shuningdek, mahalliy mualliflar asarlarini repertuarga kiritish.

Har qanday jamoada olib boriladigan ijodiy jarayon albatta biror nuqtaga yetib borib, tinglovchi yoki tomoshabinlarning e'tibor havola etilishi lozim. Shuning uchun, jamoa repertuari shakllantirishning ilk davrda, tanlangan asarlardan qay yo'sinda foydalanish mumkinligini aniqlab olish talab etiladi. Jamoa repertuarida rang barang asarlar qanchalik ko'p bo'lsa, turli mavzularlardagi namoyishlarini tashkil qilish shuncha osonlashadi.

Folklor jamoalari madaniyat va aholi dam markazlarida badiiy ijodiyotning biror turi bo'yicha tashkil etilganda, o'sha hududning nomi yoki jamoa dasturidagi qo'shiqlarga qarab jamoaga nom beriladi. Jamoaga qatnashchilarning qiziqishlari,

saviyasidan kelib chiqib , ma'lum miqdordagi kishilarning yoshi, kasbi, irqi, millati va jamiyatdagi mavqeidan qat'iy nazar ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Havaskorlik jamoalarining qatnashchilari, odatda, turli kasb egalaridan iborat bo'lib, ular o'z ish joylarida professional hisoblanadilar, badiiy havaskorlik bilan esa bo'sh vaqtlarda shug'ullanadilar.

Badiiy havaskorlikda ishtirok etish kishilarini o'zlari mehnat qilayotgan jamoadan tashqarida, intilishlari va qiziqishlari bilan hamfikir bo'lgan boshqa bir badiiy jamoa a'zoga aylantirishish mumkin. Havaskorlik jamoalarida kishilarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash, rivojlantirish imkoni yaratiladi. Ular ichidagi haqiqiy iqtidor egalarini yuzaga chiqaradi. Shaxsning ma'naviy yo'nalishdagi imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning fikri, tasavvuri, irodasi, ijodiy potentsiallarini faollashtiradi. Badiiy ijodiyoti bilan shug'ullangan kishilar boshqalarga nisbatan san'atni chuqurroq tushinadigan, ularga baho bera oladigan va kerak bo'lsa tanqid qila oladigan kishilarga aylanadilar.

Havaskorlik jamoasi qatnashchilari va ijrochilari xalqning professional badiiy ijodi bo'lib, ommaning uyushgan holda san'atda yaqinlashuvi, murojaati va munosabatini ifodalovchi shakl hisoblanadi. Bu shakl, o'z mohiyati jihatidan aholining mazmunini hordiq chiqarishda qo'llash mumkin bo'lgan ijtimoiy foydali tashabbusidir. Folklor san'ati kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirib, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalash ishiga hizmat qiladi. O'zining eng yaxshi namunalari bilan jamiyatning badiiy hazinasini boyitishiga hissa qo'shadi.

Xullas, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan havaskorlik jamoalarining paydo bo'lishi, ularning folklor san'ati asarlari, milliy qo'shiqlar, marosimlarini qayta tiklanishiga, ularning ijrosi va namoyishi natijasida aholi, aynicha, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi hissalarini muhim hisoblanadi. Shu bois, bu jamoalarning keyingi faoliyati madaniyat va aholi dam olish markazlarida davom ettirilishini davlat dasturi orqali belgilab qo'yildi.

## **II Bob. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarni shakllantirishning ijtimoiy omillari**

### **2.1. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy ijodiy jamoalarining dolzarb masalalari**

O‘zbekiston Respublikasida insonni tarbiyalash va uni ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda aniq strategik yo‘nalish belgilangan. Bu yo‘nalish har bir odamni shaxs darajasiga yetkazib rivojlantirish va tarbiyalashdir. Sobiq sho‘rolar tizimida odamni jamiyatning oddiy bir a‘zosi sifatida shakllantirish bosh maqsad bo‘lgan bo‘lsa, bugungi ozod vatanimizda inson o‘zini davlatimiz fuqarosi, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi, o‘zligini teran anglagan shaxs sifatida namoyon etadi. Mamlakatimizdagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiluvchi turli yo‘nalishlardagi havaskorlik ijodiyoti to‘garaklari, umumta’lim maktablari,

akademik litsey va kasb-hunar kollejlardagi fan va badiiy ijodiyot to‘garaklari, mahalla guzarlardagi turli yo‘nalishlar asosidagi klublar va uyushmalarning asosiy maqsadi ham insonni to‘laqonli shaxs sifatida rivojlantirish, o‘zligini buyuk tarix, madaniyatning munosib odami sifatida anglatishdir. Agar ta’lim muassasalaridagi to‘garaklar ishtirokchilari aniq bir ijtimoiy qatlam, ya’ni, o‘quvchi va talabalardan iborat bo‘lsa, madaniyat va turli ijtimoiy muassasalaridagi to‘garaklar turli aholi qatlamlari vakillaridan tashkil topadi. Mamlakatimizdagi huquqiy asosi qanday bo‘lishidan qa’tiy nazar barcha to‘garaklar barkamol shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilganligini e’tiborga olsak, mazkur to‘garaklarga aholini, xususan, yoshlarni jalb etishning o‘ziga xosligini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda to‘garaklar holati va ularga odamlarni jalb etish ishlari davlatimizning to‘laqonli shaxsni rivojlantirishdan iborat keng ko‘lamli faoliyatida hali talab darajasiga chiqa olmagan jihatlardan hisoblanib kelmoqda.

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi havaskorlik to‘garaklariga qiziquvchilarning jalb etilishi xaotik xolatda bo‘lib, muayyan tizimga keltirilmagan. Ularning ishi ilmiy asoslarda tartibga solinmagan. O‘rganilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, to‘garaklar ishtirokchilar asosan ota-onalarining ta’siri (38%), yaqin tanishlari (do‘stlari, dugonalari) da’vatlari (32%), o‘z ixtiyori (24%), o‘qituvchilari tavsiyasi(4%) boshqa sabablar asosida(2%) jalb etilganlar. Ma’lumki, odamning muayyan ijodiyot bilan mashg‘ulligi kuchli ichki rag‘bat, maqsad va qiziqish asosida yuzaga keladi. Agar to‘garaklarga odamlarni o‘z ixtiyorlari bilan ishtirok etish har to‘rt kishidan birini tashkil etsa, to‘garaklarning tarqab ketishi ham shunga mos bo‘lishi mantiqiy holdir.

To‘garaklarning barqaror ishlashining asosiy omillari quyidagilardir;

- To‘garak rahbarining odamlarni ijodiyotga jalb eta olish salohiyati va xarizmatik shaxs ekanligi;
- To‘garak tashkil etilgan joyning geografik joylashuvi, ya’ni yaqinligi;
- Transport jihatdan qulayligi;
- Bino va to‘garak xonasining shinamligi, xona ob-havosining yaxshiligi;



- To‘garak ishini izchil olib borish uchun zarur jihozlar, texnik vositalar bilan qurollanganligi;
- To‘garak a‘zolari tarkibida kamida to‘rtta referent guruhlar mavjudligi;
- To‘garak a‘zolari o‘z ishlarining pirovard natijasini aniq tasavvur etishlari;
- To‘garakda qatnashish boshqa sohalarda obro‘ olishga imkoniyat yaratayotganligi (masalan oilada, ishda, o‘qishda, do‘stlar davrasida)
- To‘garak a‘zosi guruhda o‘ziga ma‘qul bo‘lgan bir yoki ikkita sherik topa olishi;
- Mashg‘ulot paytida ishtioqchilar yo‘l qo‘yilgan kamchilik, ijrodagi nuqsonlar uchun shaxsga teguvchi tanqid eshitmasligi;
- Mashg‘ulotlar tashkil etishda aniqlik, intizom bo‘lishi, to‘garak a‘zolari o‘rtasida samimiylilik hamda rostgo‘ylik ruhining hukm surishi;
- Odamlarning bir-birlariga yordam berishdan zavqlanishi holatining tarkib toptirilganligi;
- Madaniyat yoki ta‘lim muassasalarida bir xil yo‘nalishdagi ikki yoki uchta to‘garak bo‘lishi va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatning (go‘yo o‘z-o‘zidan) yuzaga keltirilishi;
- Madaniyat va ta‘lim muassasasi rahbarining to‘garaklar ishiga bevosita qiziqishi, to‘garak ishtirokchilari oldida ularning sevimli to‘garak rahbarini hurmat qilishini bildirib turishi;
- To‘garak ishi natijalarini uzohi bilan ikki oyda jamoatchilik e‘tiborga havalo etilishi; (ko‘rgazmalar, bahs-munozaralar, disputlar, qiyosiy tahlillar, tanlovlar va hakoza shakllarda)
- To‘garak rahbari tomonidan har bir ishtioqchiga uning hali yuzaga chiqmagan, endigina namoyon bo‘layotgan favqulodda iste‘dodi borligini individual suhbatlar orqali anglatish va shunga ishontirish;
- Ikki oydan so‘ng to‘garak ishtirok etuvchini bilim, malaka, kasb xususiyatini oluvchilikdan bilim, kasbiy mahorat elementlarini o‘rgatiuvchiga,

beruvchiga aylantira olishi; Agar shu xususiyatni, ya'ni, to'garak ishtirokchisini bilimlarini iste'mol etuvchilikdan bilimlarni taklif etuvchilikka aylantirishga qancha qisqa vaqtli erishilsa, to'garak faoliyat shuncha barqaror bo'ladi. Masalan, 4-6 yoshdagi bolalar o'rtasida shaxmat to'garagini tashkil etgansiz. Bir oy o'tgandan so'ng to'garakning bitta a'zosi, kam shug'ullangan ikkinchi bir bolakayga ruh yoki ot qanday yurishni o'rgata boshlasa. Bilingki, marra sizniki, siz to'g'ri yo'ldan borayapsiz.

Amaldagi tajribaga ko'ra muayyan bir madaniyat muassasasi, mahalla guzari, kollej yoki maktabda biror yo'nalishdagi to'garak ish boshlasa, u haqda ma'lumot odamlar orasida tez tarqalmaydi. Mazkur holatni yaxshilash uchun mahalliy gazeta, radio, e'lonlar, plakatlar vositasida dastavval keng targ'ib etish zarur. Ikkinchi muhim muammo-bu biror to'garakda ishtirok etgan bolaning shu to'garakni bir amallab tugatib bo'lgach boshqa xildagi ijodiyot turiga umuman bormay qo'yishdir. Bunday holatlar kundalik hayotda tez-tez takrorlanib turadi. Buning boisini inson tabiatidagi muhim o'ziga xoslik ya'ni, biror sohada o'zligini to'la namoyon eta olmaslik odamning ijtimoiy jihatdan susayishiga olib kelishi qonuniyatidan izlash lozimdir. Agar e'tibor qilinsa a'lochi o'quvchi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish sohasida o'zligini to'la namoyon eta olganligi sababli boshqa sohalarda ham, masalan, jamoatchilik ishida ham, badiiy ijodiyotda ham, sportda ham faol ishtirok etadi va birinchilardan bo'lishga erishadi. Shu boisdan ham biror bir to'garak ishiga ilk daf'a rag'bat qilib qatnasha boshlagan shaxsni(u yosh bola bo'ladimi, katta avlod vakilimi qat'iy nazar) alohida e'tiborga olish qiziqishi asosida o'zlashtira boshlagan ishida muvaffaqiyat qazonishga ko'maklashish, ya'ni, o'zligini to'la ro'yobga chiqarishiga imkon berish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur holatni sotsiologiya fanida ekstrapolyatsiya hodisasi sifatida izohlanadi. Ekstrapolyatsiya muayyan natijani boshqa makon yoki sohaga ko'chirib qo'llash deb tarjima qilinadi. To'garakda qatnashgan odam ham shug'ullanish mobaynida birinchilar qatoriga ko'tarilib, odamlarning e'tirofiga sazovor bo'lsa, u boshqa sohada ham ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lishga

intiladi. Xullas, bir marta birinchi bo‘lib e’tirof etilgan shaxs hech qachon boshqa sohalarda ham ikkinchi bo‘lib yurishni o‘ziga ma’qul ko‘rmaydigan bo‘lib qoladi.

Shu boisdan ham yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” asoslab berilgan milliy ta’lim modelining beshta elementi qatorida shaxs omili birinchi o‘ringa qo‘yilganligi bejiz emasdir. Demak, ta’lim omili insonning hayotda o‘zini qanday ijtimoiy maqomda his etishi, o‘zini-o‘zi baholash darajasini belgilashda favqulodda muhim rol o‘ynaydi. To‘garaklar ishini tashkil etishda ham barkamol insonni shakllantirish, shaxsni tarbiyalashdek muxim ijtimoiy vazifa bajarilayotganini chuqur anglash zarurdir.

To‘garak ishini tashkil etishda qanday toifadagi odamlar bilan ish boshlanayotganligi alohida e’tibor berish zarur. Agar katta yoshdagi aholi vakillari bilan bog‘dorchilik to‘garagida faoliyat olib borilsa, ishni kattalarni shu sohadagi bilim va tajribalarini to‘la yuzaga chiqarish, fikr almashish ularga shu sohada bilimi pastligini aytib sha’niga tegmaslik asosida ish boshlash zarur. Chunki kattalardagi qiziqish shunchaki berilish emas, balki hayotiy talablar asosida shakllangan va anglangan ijtimoiy ehtiyojdir. Katta yoshdagi odamlar bilan ishlashda har bir narsaning mohiyatini ochib berish qadrlanadi.

Xuddi shunday ishni 10-12 yoshli bolalar bilan qilganda uslubni tubdan o‘zgartirish talab etiladi. Chunki bolalarni xarakatlantiruvchi kuch – maksimalizm bo‘lib, har ishning tez bajarilishi, aytilgan narsa, yetkazilgan bilimning amaliyotdagi isbotini uzoq kutmasdan ko‘rishga bo‘lgan rag‘bat kuchli bo‘ladi. Shu boisdan ham bolalar ishtirokidagi bog‘dorchilik to‘garaklarida amaliy ishni tezroq namoyon etish, amaliyot mobaynida yuzaga kelgan ko‘plab savollar, ya’ni, urug‘ navlari, vegetatsiya davvri, o‘simliklar oilasi, xujayralar tuzilishi, xar xil daraxtlarni bir-biriga payvand qilish va xakozo savollar doirasida nazariy mashg‘ulotlarni o‘tkazish yaxshi samaralar beradi.

To‘garak ishining muvaffaqiyati mashg‘ulotlarning o‘tkazilish vaqti, joyining qulayligi muloqot madaniyatiga ham bog‘liqdir. Aksariyat odamlar, ba’zi to‘garaklar, klub va ko‘ngilli uyushmalariga boshqa joyda bo‘lmagan imkoniyatlarga ega bo‘lish uchun xam boradilar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga

ko'ra xar uchtadan bir o'quvchi o'zi sevgan to'garakdagi mashg'ulotning yaqin do'stlari davrasida o'tkazilishini, 25 foiz so'ralganlar esa raxbar va to'garak a'zolarining samimiyligi va xushmuomilaligini, 16 foiz respondentlar esa bilim olish jarayoni faqat rag'batlantirish orqali kechishini, 15 foiz bolalar to'garak mashg'ulotlarida o'zlarini erkin xis etishlarini 13 foiz so'ralganlar esa turli sohadagi internet orqali tez olish imkoniyatlari borligini qayd etdilar. To'garaklar faoliyatining samarali kechishida to'garak a'zolarining soni xam muhim rol o'ynaydi. Agar to'garak a'zolari soni 15 kishidan oshmasa bu to'garakda ko'pi bilan oltita bir-birini yaxshi biladigan referent guruhlar shakllanib, jamoada sog'lom raqobat va sohani o'zlashtirish jarayoni samarali kechadi. To'garak a'zolarining soni 20-25 kishi bo'lsa, qatnashchilarning referent guruhlarda uyushuvlari amorf tarzda bo'lib sag'lom raqobatni barcha kichik guruhlarda barovar olib borish qiyin kechadi, natijada muayyan kasb, bilimlar yoki sohani o'zlashtirish samaradorligi pasayadi. To'garaklarda ishtirok etuvchilarning yosh senzlarini hisobga olishda ularning quyidagi o'ziga xosliklarini puxta hisobga olish zarurdir. O'quv-uslubiy qo'llanmalarda qayd etilishicha, 11 yoshgacha bo'lgan bolalarda mustaqil xarakter qilishga intilish, faoliyatga to'liq berilish kuchli bo'ladi. Ayni vaqtda ular o'z ishlari natijalariga tanqidiy yondoshishni xoxlaydilar.

12-13 yoshli bolalar esa o'z ishlariga tanqidiy yondoshishga moyil bo'ladilar. Ammo, ish natijalarini obektiv tahlil qila olmaydilar. Shu boisdan boshqalardan namuna olishga, taqlid qilishga moyil bo'ladilar. 13 yoshdan yuqori bo'lgan bolalarda esa abstrakt tafakkur qilish, o'z dunyoqarashini namoyish etish, milliy o'ziga xoslikni ro'yobga chiqarish xoxishi kuchli bo'ladi. Ayni shu yoshda yoshlikka xos bo'lgan maksimalizm yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Bunday yoshdagi to'garak a'zolari fikr-qarashlarni keskin tanqid qilish, mustaqil mulohaza qilish xoxishlarini bo'g'ib qo'yish ularning to'garak ishidan sevib qolishlariga olib keladi.

Yangi avlod Madaniyat va aholi dam olish markazlari, mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishga katta imkoniyatlarga egadir. Bunda teatr, kutubxona, klublar, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, istirohat

bogʻlari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilarning dunyo qarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy va maʼnaviy ozuqa beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqarish va amalga oshirish lozimdir. Milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarida koʻrsatilganidek, Madaniyat va aholi dam olish markazlarida turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs munozaralar, uchrashuvlar, uyushmalar, milliy istiqlol mafkurasining mazmuni va mohiyati yoshlar ongiga tushunarli tezda yetib boradigan qoʻllanma va maslahatlar ishlab chiqsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari yoshlarni haqiqiy sanʼat, chinakam badiiy goʻzallik ruhida tarbiyalaydigan maskanlarga aylanmogʻi lozim. Yoshlarning maʼnaviy kamoloti ruhida fikr yuritishidagi, albatta komil inson gʻoyasi va uning milliy va umuminsoniy, umumbashariy mohiyatiga ega ekanligini bilmogʻimiz kerak. Erkin fuqarolik jamiyatini maʼnaviy barqarorlik, barkamol ezgu gʻoyalar hayotiy eʼtiqodi boʻlgan insonlarga bunyod eta oladi. Shuning uchun ham yangilanayotgan jamiyatimizda sogʻlom avlodni tarbiyalashda, erkin fuqaro manaviyatini shakllantirish, madaniy-maʼrifiy ishlarni yuksak darajaga koʻtarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazish katta eʼtibor berilmoqda, bir paytda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida Madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalari juda maʼsuliyaatlidir.

Asli mafkura inson ruhiyati, tafakkuri va dunyo qarashini oʻzgartiradigan kuchli vosita. Uning gʻoyalari xalqning ishonch eʼtiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansagina samara beradi. Shu bois ham mafkura sohasidagi madaniy-maʼrifiy maskanlar targʻibot va tashviqot ishlari, fuqarolarning tushunchasi, aql-idrok va tafakkuri darajasini inobatga olgan holda, maʼrifiy yoʻl va usullar orqali amalga oshirish taqazo etadi. Umumiy qilib aytganda maʼnaviy barkamol insonni tarbiyalash davlat islohotlarining ustivor yoʻnalishidir. Yurtdoshimiz taʼkidlaganidek: “Har bir insonga, ayniqsa endigina hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarga, ongiga shunday fikr singdirish kerakki, ular oʻrtaga quyilgan maqsadlarga erishishi, oʻzlariga bogʻliq ekanligini, yaʼni bu narsa ularning sobitqadam gʻoyat shijoatiga toʻla toʻkis fikrlaganga va cheksiz mehnatsevarlikka

bog‘liq emasligini anglab yetishlari kerak”. Huddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir. Yoshlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishdek, davlat ahamiyatiga moyillik va ma’suliyatli vazifani amalga oshiradi, Madaniyat va aholi dam olish markazlari ham ma’sul va javobgar bo‘lib, ular o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani tarqoq holda emas, balki hamkorlik va hamjihatlik bilan harakat qilish zamiridagi xalq etishlari mumkin ekanligini anglab yetishlari kerak.

Bu o‘rinda madaniyat va aholi dam olish markazlari yoshlarni ma’naviy kamolotiga yetkazishda va ularning dunyo qarashini shakllantirishda hamda milliy istiqlol mafkurasini ularning ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya mazmunini mukammal ishlab chiqarishlari lozim.

Endigi paytda yoshlar tarbiyasida madaniyat va aholi dam olish markazlarida kundagi talab va takliflar tavsiyalar kiritib yanada izchil olib borsa, samarali natija beradi:

- Yoshlarni har tomonlama shakllantirishda ularning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish;
- O‘qituvchi va murabbiylar ijodkorligini ta’minlash kasb mahoratlarini oshirishning samarali yo‘llarini izlash;
- Qishloq yoshlari uchun ta’lim, madaniy- ma’rifiy muassasalarning zamonaviy shakllarini keng joriy etish;
- Yoshlar uchun dunyoqarashni kengaytiradigan qiziqarli teleko‘rsatuvlar, radio eshittirishlar muntazam tashkil etish, kino ko‘rsatuvlar, kutubxonalar bo‘yicha bellashuvlar muntazam ravishda uyushtirish;
- Madaniy-ma’rifiy muassasalarni eng zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta’minlash;
- Ta’lim-tarbiya ishlari shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;
- Kutubxonalarda saqlanayotgan milliy yozma meros va hujjatlar haqidagi axborotlarni kengaytirish;
- Kitobxonlarni jalb qilish uchun yangi binolarni qurish;

- Yangi ko‘rgazmalar texnologiyalarni qo‘llagan holda qiziqarli dil tortar ko‘rgazmalar tashkil etish;
- Yoshlarga, o‘qituvchilarga va keng ommaga yordam berish maqsadida ma’ruza va nutq ommaviy tadbirlar orqali o‘quvchilar bilimini boyituvchi dasturini rivojlantirish;
- Respublikamiz hududida hozirgi kungacha barpo etilgan qishloq madaniyat markazlari faoliyatini keng o‘rganish;
- Qishloq joylarda madaniyat markazlari barpo etish uchun hozirgi kunda zarur imkoniyatlar bo‘lmagan joylarda hashar bilan qurilish ishlari olib borish, bu ishlarga aholi yoshlarini va tijorat korxonalarining homiylik yordamini jalb etish;
- Qishloq madaniyat maskanlari barpo etishni targ‘ib etish maqsadida joylarda hududiy seminarlar va kengashlar, uchrashuvlar, qiziqarli tadbirlar tashkil etish. Bu ishlarni yoritishga ommaviy axborot vositalarini jalb etish;
- Barcha milliy uslubiyot markazlari tarafida qishloq madaniyat maskanlari barpo etish ishlariga oid uslubiy va ommaviy qo‘mitalarni va tavsiyanomalarni yaratish.

Xullas, Yoshlar jamiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘zgacha qilib oladilar, qiyinchiliklarni vujudga kelganda extiroslarga beriladilar. Shu bois, madaniy-ma’rifiy muassasalardagi asosiy vazifalarni yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, yoshlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishdan iboratdir. Yoshlar ma’naviy tarbiya muammolarini madaniy-ma’rifiy muassasalarning asosiy ishi bo‘lib, ungacha burch va ma’suliyat nuqtai nazardan yondoshmoq kerak. Shundagina yurtboshimiz ta’kidlaganidek, ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni shakllantirishga bo‘lgan va o‘z oldimizdagi qo‘yilgan maqsadlarga erishamiz.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda Madaniyat va aholi dam olish markazlari katta rol o‘ynaydi.

Havaskorlikni rivojlantirish ham madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkiliy tarbiyaviy muassasa sifatida ahamiyatni oshiradi.

Madaniy - ma’rifiy xodimning malakaviy faoliyati o‘z maqsadi mohiyati bilan tarbiyaviy ishidir. Uning asosiy vazifalari har tomonlama komil topgan shaxs

shakllantirishdan iboratdir. Madaniy – ma’rifiy xodim mustaqil O‘zbekistonning milliy siyosatining targ‘ibotchisi mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash, ommaning havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan ma’naviy barkamol inson tarbiyalash ishi bilan shug‘ullanadi.

Yoshlarning madaniy dam olish, o‘z ma’naviy extiyojlarini qondirishga, iste’dod va qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Odamlar bilan ishlashga da’vat etilgan madaniy-ma’rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to‘garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg‘uloti odamlarda o‘z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg‘ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma’rifiy xodimlarning o‘zida vatanparvarlik tuyg‘ularini qanchalik mustahkam o‘rin olganligiga, o‘tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo‘naltirish va ularni bir yo‘lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to‘g‘ri foydalana olishga bog‘liq bo‘ladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari mehnatkashlari o‘rtasida g‘oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg‘orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazadilar.

Madaniy-ma’rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ‘iboq qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san’at asarlarining paydo bo‘lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san’atini o‘rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘sha oladigan o‘tmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati an’analarning, ilg‘or tajribalarini va ilmlarini meros qilib olgan ma’naviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar,



insonparvarlik g'oyalari sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu tarbiyaning bo'sh yo'li maqsadi yo'lida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi jamiyat quruvchilari tarbiyasi yo'lidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi ma'naviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir.

Barkamol avlodni tarbiyalashda madaniyat va aholi dam olish markazlarining ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi tarbiya usuli maktablarda, oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning ko'ngilliligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga ijtimoiy ravishda keladilar. Maktablarga, o'quv yurtlariga esa kishilar o'z hayotini extiyojlarini qondirish tufayli bilim olish, kasb o'rganish, biron bir mutaxassislikni egallash uchun keladilar. Natijada ularga deyarli bir necha xil yo'ldagi, malakadagi va qiziqishlari, maqsadlari bir xil bo'lgan kishilarga qatnashadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlariga aholining turli qatlami o'zini ma'naviy talab va istaklarini bayon etish, xavaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro axvolda mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan voqealarni anglash haqida axborotlar olish, do'stlar, o'rtoqlari bilan suhbatlashish hayotiy va ijtimoiy extiyojlarini qondirish uchun keladilar. Shuning uchun ham bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy ta'sir etish ishlari ancha murakkabdir.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarini uyushtirish uchun dastavval aholi turli qatlamlarini ma'naviy talab va istaklarini madaniy saviyasini, kasbi va mutaxassisligini ommaviy axborot vositalari orqali va mustaqil o'qish natijasida olgan yangi bilimlarini darajasini hisobga olish zarurdir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi tarbiyaviy ishlar uning qatnashuvchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashuvchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi, ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faoliyatiga tashkilotchilarning faoliyatiga tayanadilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining har bir tadbiri qatnashuvchilari ham tarbiyalovchisi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yurtida esa tarbiyaviy ta'sir etish obektni o'rganuvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari yoshlarning madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan Madaniyat va aholi dam olish markazlariasosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, qiroatxonalar shular jumlasidan demakdir. Madaniy va ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat uylari va madaniyat saroylari kiradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari aholining doimo o'sib kelayotgan ma'naviy talabi, extiyoji va qiziqishlarini har tomonlama qanday ekanligini qondirishga qaratilgan bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g'oyaviy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradi. Kishilarning o'zaro muloqatda dunyo qarashi turli tuman hayotiy masalalarni va siyosatdagi kundalik dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish

yoʻli bilan madaniyat va aholi dam olish markazlari jamiyatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Hozirgi vaqtda madaniyat va aholi dam olish markazlarining eng muhim vazifasi yoshlarning madaniy dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning koʻnglini hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud boʻlgan turli anʼanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning boʻsh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli oʻtkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari oldiga qoʻyilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xoʻjaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, sanʼatning guruhlab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalari va ular oldiga qoʻyilgan talablar bir-birini toʻldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni taʼsirchanligini taʼminlaydi.

Madaniy-maʼrifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari oʻz xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-maʼrifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning oʻziga xos milliy siyostai bilan mustahkam bogʻlaganligidir.

Madaniy-maʼrifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yoʻliga oʻtgandan beri sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar natijasida kishilarning oʻz-oʻzini qayta anglashi, ota-bolalar merosiga alohida eʼtibor bilan yondashishi, ahloqiy qiyofasi, felʼ-atvori, oʻzgarib maʼnaviy va madaniy extiyojlarini qondan-qonga oʻsib boryapti. Oʻzgargan sharoit shaxsga gʻoyaviy taʼsir etishi, uning oʻsib borayotgan extiyojlarini qondirish uchun yanada yangiroq, samaraliroq vositalar va usullarni qoʻllashni talab etadi. Bu bir tomondan

ommani, uning extiyojlarini yaxshi bilishni ikkinchi tomondan madaniy-ma'rifiy ishlarning shakli va usullarini tashkillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar pedagog faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraligi, shaklan nihoyatda xilma-xilligi shu shakllarning o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan ham farq qiladi. Bundan tashqari madaniyat va aholi dam olish markazlarida ommaviy axborot va sanoat vositalari, texnika vositalari, ommaning havfsizligini rejali, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim barcha tarbiyaga pedagoglar qatori tarbiyaning hamma yo'nalishlari aqliy, mehnat, ahloqiy, iste'dod, estetik va jismoniy tarbiya masalalari bilan shug'ullanadi. Lekin u bunday ko'p qirrali tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'quvchi, murabbiylar faoliyatlarida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikdan o'quvchilar yoki talablar bilan emas, balki, yosh kasb bilim darajasi, qiziqishi va extiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boriladi.

O'quv yurtlarida tarbiya vazifalari asosan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniy-ma'rifiy xodimlar esa milliy mafkura va milliy g'oya tarbiya vazifalarini yoshlarning bo'sh vaqtida dam olishni oqilona uyushtirish, ma'naviy extiyojlarini qondirish qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida madaniy va ma'rifat maskanlarida tashkil etiladigan havaskorlik uchrashuvlarini ixtiyoriy mashg'ulotlari orqali va xilma-xil ommaviy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, odamlarni ma'naviy extiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib, bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini ya'ni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlari majmuini egallagan bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng zarur bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri bu pedagog bilimlar bo'lib, u olib boradigan ta'limiy hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati chuqur tushunib olishda, odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga uning yo'llari va vositalarini, bo'sh vaqt sharoitida odamlar o'rtasida o'zaro muloqat o'tkazishning eng samarali usullarini o'zlashtirib olib, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganishda yordam beradi.

Odamlarda xavas uyg'ota olish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini to'laroq qondira bilish san'atidir.

Bu san'at pedagog odobini egallab olishni ta'lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim malakaviy madaniyatning yana bir muhim ko'rsatgichi – bu psixologik bilimlaridir. Faqat psixolog qonuniyatlarini puxta o'zlashtirishi, uni uyushtiradi, qatnashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosidagina tarbiyaviy uyushtirish va uning samarali jarayoni to'g'ri uyushtirish bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari hamda ta'lim muassasalar, oila bilan hamkorlik faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish barkamol shaxsni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. Shu sababli so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan maktabdan tashqari ta'lim tizimida madaniyat va aholi dam olish markazlari hamda oila bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi madaniyat muassasalariga bo'layotgan e'tiborning yorqin amaliy ifodasidir. Har ikki ta'lim muassasasi faoliyatini o'rganish, tahlil etish ular o'rtasidagi hamkorlikni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yo'lga qo'yish mumkinligini ko'rsatdi:

- Bolalar va o'smirlarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni turli xildagi to'garaklarga jalb etish;

- Bolalar va o‘smirlardagi mavjud qobiliyatlar va imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish chora-tadbirlarini belgilash, ularni ushbu tadbirlariga kengroq jalb etish;

- Oilalar bilan birgalikda har ikkala ta’lim muassasida turli mavzudagi ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni uyushtirish.

Ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida suhbat, davra suhbat, uchrashuv hamda ko‘rgazmalarni tashkil etish asosida madaniyat va aholi dam olish markazlari, ular qoshida tashkil etilgan to‘garaklar, to‘garak a’zolari tomonidan qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, bolalar va o‘smirlarning turli tanlov va ko‘riklarda ishtirok etish imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumotlar berib borish ularda mavjud bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondirish yo‘lida amaliy harakatlarning tashkil etilishiga turtki beradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida ta’lim olayotgan bolalar va o‘smirlarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, to‘garak a’zolarining ishtirokida bayramlar, konsert va musobaqalarning uyushtirilishi ham bolalar va o‘smirlarning ushbu muassasalar faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratilayotgan mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda shaxs individualligi birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi. Binobarin, shaxs omili birlamchi ekan, uning tarbiyasi va ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy kuchidan samarali foydalanish tadbirlarini belgilash zarur.

Binobarin, shaxs–oila – jamiyat o‘zaro ta’sir modelining yagona maqsadi komil insonni tarbiyalashga yo‘naltirishdir. Shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash jarayonida oilaning iqtisodiy (ishlab chiqarish) imkoniyatlarini ham e’tiborga olish zarur.

Shaxs ijtimoiylashuvi bevosita oilada kechadi. Boshqa ijtimoiy institutlar doirasida esa mazkur ijtimoiylashuv tobora mustahkamlanib, murakkab xususiyat

kasb etib boradi. Biroq, shunga e'tibor berish zarurki, jamiyat oilalarga har tomonlama yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim. Ayni vaqtda ko'pgina rivojlangan xorijiy mamlakatlarning (Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Germaniya va boshqalar) ta'lim tajribasida ijtimoiy xizmat doirasida "bo'sh vaqt tashkilotchisi" lavozimi joriy etilgan. Bo'sh vaqt tashkilotchisi bo'lgan mutaxassis "animator" deb nomlanib, uning vazifasi oilalarga ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. Bo'sh vaqt tashkilotchilari guruhini asosan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglar tashkil etadi.

"Bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi" da maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishda madaniyat va aholi dam olish markazlari va oila imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egaligiga alohida urg'u berilgan. Shundan kelib chiqqan holda oila zimmasidagi vazifalar sirasida quyidagilarni keltirish mumkin.

- Ota-onalar farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- Bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- Bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- Bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib, unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- Ota-onalar farzandlarida ma'lum bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- O‘z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas‘uliyatli bo‘lish va hokazolar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining oila bilan o‘zaro hamkorligi istiqbolli rejalarini ishlab chiqish tajribasi alohida ahamiyatga ega, chunki mashg‘ulotlarni erkin tanlash asosida bola shaxsini erkin ijodiy rivojlantirish maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarining xususiyati sanaladi. Shuningdek, maktabdan tashqari ta‘lim tizimini pedagoglari ota-onalar tomonidan berilgan ma‘lumotlar asosida o‘quvchilarning fiziologik, psixologik va jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlari uchun g‘amxo‘rlik qiladilar.

Ota-onalar tomonidan farzandlarini madaniyat va aholi dam olish markazlarida ta‘lim olish uchun yo‘naltirishda quyidagi harakatlar bajariladi:

Ota-onalar bolalar tomonidan ijodiy faoliyatining tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan material va asboblarni topish hamda sotib olishga moyillik bildiradilar, natijada oilada muayyan kasb yoki hunar yo‘nalishi bo‘yicha qiziqish doirasi kengayadi;

Ota-onalar farzandlari ishtirok etayotgan turli yo‘nalishdagi ko‘rgazma, ko‘rik hamda tanlovlarda bevosita qatnashish, ularni ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash bolalar va o‘smirlar ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalaydi.

Farzand ulg‘ayishi bilan birga ota-onalarning ularni bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishga o‘rgatish, u mansub bo‘lgan mikro muhitning ma‘naviy tavsifini bilishga intilishga oid tashvishlari soni ko‘payadi. Ijodiy faoliyat bolalarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, o‘zaro fikr almashishga undaydi, birgalikda, hamkorlik asosida mehnat qilish, bir tomondan, ulardan ijodiy sifatlarning yanada boyishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ular uchun ijtimoiy ehtiyoj sanalgan – muloqot jarayoni yuzaga keladi va uning uzluksizligi, davomiyligi ta‘minlanadi.

To‘g‘arak a‘zolari bilan tashkil etilgan suhbat, munozara va savol natijalaridan anglash mumkinki, aksariyat bolalar, shu jumladan, o‘smirlar aynan maktabdan tashqari ta‘lim muassasalaridagina o‘zlariga do‘st topganlar. Tabiiyki,



bu holat ota-onalarni qoniqtiradi hamda ulardan maktabdan tashqari ta'limga bo'lgan hayrihohlik xissi yanada ortadi<sup>6</sup>.

Bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamkorligining yangi modellari ishlab chiqilmoqda. Masalan: oilaviy turistik-o'lkashunoslik dasturlari; ota-onalar uchun mo'ljallangan ijtimoiy-huquqiy va tibbiy-pedagogik mashg'ulotlar tizimi (universitetlar, lektoriylar, praktikumlar va boshqalar); ko'p bolali oilalarning an'naviy uchrashuvlari; ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyalanayotgan oilalar uchun hayriya tadbirlari va konsertlar; ota-onasiz qolgan bolalarning vasiylar bilan uchrashuvlari; oilaviy klublar va ustaxonalar.

Ota-onalarni madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'limning maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, ota-onalar o'rtasida pedagogik mahoratni targ'ib qilish ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi sanaladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari bilan oila (ota-onalar) o'rtasidagi hamkorlik doirasida bir qator muhim vazifalar hal etiladi. Jumladan, bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatlari ularning hamkorlikda rivojlanishi va ma'naviy boyib borishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning oilaviy shakillarini takomillashtiradi.

Oila va madaniyat va aholi dam olish markazlari bir-birlarini to'ldiradi, turli yoshdagi bolalarning ta'lim olishi va ijodiy rivojlanishi va ma'naviy boyib borishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oiladagi kabi o'quvchilar madaniyat va aholi dam olish markazlarida ham o'zlarining himoyalanganliklarini xis qiladilar. Binobarin, ta'limning mazkur tizimda har qanday zo'ravonlik, tahdid va tanbehlariga asoslanuvchi avtoritar uslub inkor etiladi.

---

<sup>6</sup>Ш.Алимова "Маданий-маърифий фаолият асослари" Т: Ф.Фулум, 2008 46-бет

Pedagog bola shaxsining shakllanishi va taraqqiy etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi obro'li shaxs bo'la olishi zarur. Zero, uning faoliyati bilan bog'liq ayrim xususiyatlar bolalarni madaniyat va aholi dam olish markazlariga faol jalb etishga yordam beradi. Bu o'rinda pedagog shaxsi va kasbiy malakasiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jumladan:

- bola maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'zi uchun qiziqarli faoliyat yo'nalishinigina emas, shu bilan birga pedagogni ham tanlash imkoniyatiga ega;
- so'z yuritilayotgan tizim pedagogning mutaxassislik yo'nalishida yuqori darajada mahoratli bo'lishi, uning uchun etalon sanaladi;
- madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat boshqa ta'lim muassasalaridan farqli tashkil etiladi, ya'ni ustoz-shogird o'rtasidagi munosabat norasmiylik, oshkoralik va samimiylikka asoslanadi.

Ota-onalar ijtimoiy –pedagogik yo'nalishda pedagog bilan o'zaro hamkor bo'la olsalar, uning faoliyati yanada samarali bo'ladi.

Binobarin, madaniyat va aholi dam olish markazlari va ularning faoliyat yo'nalishlari to'g'risidagi axborotlar ota-onalarni faollashtiradi. Ularning farzandlaridagi qiziqish va hohish- istaklardan xabardor bo'lishlariga imkon beradi. Bu holatlar oilaning tarbiyaviy ta'sirini yanada oshiradi, natijada ularda mazkur ta'lim muassasasiga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari pedagoglari ish tajribasining ko'rsatishicha, ularning ota-onalar bilan o'zaro hamkorliklari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- pedagog va ota-onalarning o'zaro bevosita muloqoti;
- pedagogning ota-onalar jamoasi bilan ota-onalar faollari orqali bilvosita o'zaro ta'siri.

Maktabdan tashqari ta'lim amaliyotida turli xil ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda o'zaro hamkorlikning bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi

vositalaridan foydalaniladi. Ota-onalar pedagoglar, to‘garak rahbarlariga murojaat etib, farzandlarining muammolarini hal etishda norasmiy shaxsiy munosabatni kutadilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari pedagogining ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi ularni ta’lim jarayoniga eng yuqori darajada jalb etishga, ularda subektiv faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat esa aksariyat ota-onalarda bola hayotining mo‘tadil kechishida ularni yoshlikdanoq muayyan kasb yoki hunarga o‘rgatish, bu yo‘lda madaniyat va aholi dam olish markazlarining imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi haqidagi tushunchalarini hosil qiladi.

Shu bilan birga ta’kidlash joizki, agar pedagog o‘z oldiga ota-onalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadini qo‘ymas ekan, madaniyat va aholi dam olish markazlari va oilalar o‘rtasidagi ijtimoiy sherikchilikka asoslanuvchi hamkorlik to‘laqaror topmaydi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash, ularda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, ommaviy sportga jalb qilish, turli zararli illatlar ta’siridan ularni asrash borasida mamlakatimizda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan keng ko‘lamidagi ishlar amalaga oshirilmoqda.

“Madaniyat va aholi dam olish markazlari”dagi studiya va to‘garaklarga o‘quvchilarni jalb qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali e’lonlar, mahalla qo‘mitalari bilan uchrashuvlar tashkil etib borish, shuningdek, maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarida to‘garaklarga qatnashishlariga qulay sharoit yaratish bilan ular qoshida to‘garaklarni joylashtirish haqida shartnomalar tuzib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yurtimizda bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etilishi borasida keng ko‘lamli ishlar amalaga oshirilishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodning mavjud imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularni yot, buzg‘unchi g‘oyalardan saqlash, vatanga muhabbat ruhida

tarbiyalash, barkamol inson sifatida voyaga yetkazish yoʻlida qilinayotgan sayi harakatlarining natijasidir.

## **2.2 Ommaviy tadbirlarni tashkil qilishdabadiiy ijodiy jamoalari dasturlaridan foydalanish shakllari**

Ommaviy tadbirlarni tashkil qilishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining oʻrni muhim ahamiyatga ega. Chunki folklor sanʼati aholi boʻsh vaqtini samarali tashkil qilishda asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. negaki, folklor sanʼati – nafosat chechaklarini oʻzida mujasam qilgan maʼnaviy boylik sifatida sayqallanib ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelmoqda.

Ommaviy bayramlar hozirda aholining maʼnaviyatini shakllantirishda va milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirishda muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Folklor sanʼatini rivojlantirishda havaskorlik jamoalarning dasturlaridagi milliy marosim, anʼana va milliy qadriyatlar oʻtkaziladigan tadbirlarning mazmun-mohiyatini yoritib beradi. Ommaviy tadbirlarni oʻtkazilishining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni mustaxkamlashdagi oʻrni benihoya katta xisoblanadi.

Milliy istiqlol gʻoyalarini keng xalq ommasiga singdirish, ayniqsa yoshlarda yuksak milliylik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tutgan oʻrni beqiyosdir. Xalq zakosi ila yaratilgan bayramlar oʻzida bir necha nomaddiy madaniy meros namunalari aks ettiruvchi maʼnaviy koʻzgudir. Chunki ommaviy tomoshalar ijtimoiy hayotda boʻlayotgan turfa xil voqealarni baiiy tarzda aks ettiradi. Ommaviy tomoshalar insoniyat yaratgan eng yaxshi xalq anʼanalarini saqlaydi, rivojlantiradi, targʻib qiladi. Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlaridan biri boʻlmish folklor havaskorlik ijrochiligi sanʼati sahna bilan bogʻliq boʻlgan barcha ijro namunalarini qamrab oladi. Havaskorlik jamoalari ijrochiligidan foydalanish ommaviy bayram va tomoshalarning nufuzini oshiradi. Bu ijrolar oʻz oʻrnida nomoddiy madaniy meros sifatida baholanadi. Bayram va tomoshaning taʼsirchanligi, mavzu va gʻoyaning keng hamda aniq yoritilishida asosan havaskorlik jamoalarning oʻz oʻrni bor.

Aynan xalq ommasining harakati tomshalarining mazmun-mohiyati xavaskorlik jamoalari dasturi va ijrosida talqin etiladi. Shuning uchun tadbirni tashkil qilish jarayonida rejissyorning o'z o'rnini mavjud. Chunki ommaviy tadbirlarni uyushtirishda bayramda qatnashayotgan tomoshabin uchun teatrlashtirilgan tadbirning xatti-harakatini, asosiy mavzusi va g'oyasini ochib berish zarur. Rejissyor havaskorlik jamoalar ijrosidan to'g'ri va xolisano foydalanishi lozim. Bayramdagi ommaviy teatrlashtirilgan haraka tadbirning g'oyaviy solohiyatini oshiradi. Bayramning asosiy qismi bo'lgan teatrlashtirilgan tadbirda mavzu nuqtai-nazaridan yondashish rejissyor bilimi va iqtidoriga bog'liq.

Istiqlol tufayli xalq ommaviy bayramlarda havaskorlik jamoalari ijrochiligining mavqei nihoyatda kengayib, xalqchilligi kuchayadi. Ommaviy bayramlarining folklor janrlari ijrochilik san'ati namunalarining barcha turlarini qamrab oldi. Ommaviy bayramlar milliy dasturidan folklor san'atning barcha sara asarlari, ya'ni qadimiy qo'shiqlar, gulyoru-alyorlar, latifa va loflar, askiya va dostonlar ijrochiligi namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, professional san'atkorlar bilan bir sahnada ijodiy bahslashish imkoniga ega bo'lgan ko'plab xavaskorlik jamoalarning chiqishlari bayramning badiiy nufuzini oshirib boradi. Ommaviy tadbirlarda xavaskorlik jamoalardagi qo'shiq, kuy, raqslarning ijrosi yangrab, tomoshabinlarga ma'naviy zavq bag'ishlamoqda.

Ommaviy tadbirlarning ko'pchilik qismi hozirda turli xil usullarda, texnika vositalari yordamida ijro etish shakllari ham ommaviylashib bormoqda. Havaskor jamolarning ommaviy tomoshalardagi ko'rinishlari tadbir qatnashchilarini g'oyaviy-ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Badiiy ijroni shakllantirishda ham xavaskorlik jamoalarning o'rnini katta xisoblanadi. Badiiy ijro inson tafakkurining rivojiga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda mavzuga oid ssenariy ishlab chiqish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa ochiq osmon ostidagi tarixiy me'morchiligi, etnografik muzeylar, madaniyat va istiroxat bog'lari sharoitida teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalarning tashkil etilishi tadbir mohiyatini oshiradi. Yoshlarning

milliy an'analar ruhida tarbiyalashda folklor va havaskorlik jamoalarining ommaviy bayramlardagi ishtiroki ahamiyatlidir. Shu babli ularni tashkil etishning shakl va mezonlarini ishlab chiqish, o'tkazish ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan muhimdir.

Ommaviy bayramlarda baynalmilal xalq urf-odatları va marosimlaridan foydalanishda ham folklor-etnografik asambllar dasturning zamonaviy usullarini o'rganish va amaliy jihatdan tatbiq etish zarur. Tadbirlarni tashkil etishda, avvalo, ommaviy bayramlarning tashkiliy-ijodiy vazifalarini belgilash va tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirni tashkil etishda folklorning sof milliy janrlari namunalaridan, ijro etuvchi baxshi, oqinlar faoliyatidan folklor qo'shig'ini guruhli va yakka tartibda ijro etuvchilarning tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Ayniqsa, askiya, rivoyat, katta ashula, xalq ertaklari namunalaridan, folklor raqsi, tomosha san'ati, og'zaki dramalar namunalaridan foydalangan holda dastur yaratish muhimdir.

Havaskor jamoalar ijrochilarining san'atiga baho berishning qonuniyatlari va asosiy tamoyillarini, nizomlarini ishlab chiqib, ularni vaqtli matbuotda targ'ibot ishlariga ham ahamiyat qaratish lozim.

Havaskorlik jamoalar folklorini targ'ib qilishda zamonaviy usullaridan foydalanish lozim. Jumladan,

- folklor san'atini targ'ib qilish bilan birga amaliy ishlarning asosiy vositalarni belgilash;
- O'zbekistonda yashovchi xalqlarning badiiy ijodiyotini targ'ib qilishda madaniyat va aholi dam olish markazlari, vaqtli matbuot, radio va televideniye faoliyatining mushtarakligini ta'minlash;
- Turli darajadagi ko'rik-tanlovlar, bellashuvlar, festivallar, badiiy jamoalarning chiqishlari, xalq ijrochiligi haqida turkum eshittirish, ko'rsatuvlarni tashkil etish va o'tkazish;
- Baynalmilal markazlardagi tadbirlarda kasb-hunar kollej talabalari ishtirokini ta'minlash;

- Oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari mavjud bo‘lgan folklor-etnografik jamoalarning “Barhayot an’analar” mavzusidagi ko‘rik-bellashuvlarni tashkil etish;
- Havaskorlik jamoalari rahbarlariniga chuqur ta’lim berishning uslubiy tamoyillari va asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- Xavaskorlik jamoalari rahbarlarini malakasini oshirishning asosiy shakllarini ko‘rsatish;
- Mavzuga oid kurs ishlari va seminarlar tashkil etish;
- Ilg‘or tajribali ansambllarning ijrochiligini o‘rganish;
- Doimo ishlaydigan ilmiy-ijodiy maslaxatxonalar va ularning bo‘limlarini tashkil etish;
- Yetakchi havaskorlik jamoalardan tajriba o‘rganish;
- “xalq ansambli” unvoniga sazovor bo‘lgan folklor yoki havaskorlik jamoalarning ijro usullarini o‘rganish;
- Ilmiy uslubiyot markazlaridagi folklor san’ati bilan bog‘liq ijodiy ustaxonalarni tashkil etish usullari va ularning faoliyatini shakllantirish;
- Folklor asarlari to‘plovchilarini havaskor uyushmalari va jamoalarini tashkil etish mezonlari, uning vazifalari, yo‘nalishlari va ish uslublarini shakllantirish;
- Ilmiy uslubiyot markazlari, madaniyat uylari, etnografiya va o‘lkashunoslik muzeylari, madaniyat va istiroxat bog‘larida tayanch tajriba folklor va havaskorlik jamoalarini tashkil qilish;
- Folklor teatri san’ati namoyondalarining xalq ijodiyoti merosini har tomonlama o‘rganish va sahnada gavdalantirish vositalari.

Ommaviy tadbirlarni targ‘ib etishda zamonaviy usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Xalq ijodiyoti” fakulteti talabalariga “Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti” fanini o‘qitishda ta’limning zamonaviy usublari, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fanga oid ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida komyuter texnologiyalari, DVD vositalari yordamida taqdimot etish texnik usullardan

foydalanish darsning nufuzini oshirib, samarali natijalar beradi. Bizningcha, talabalarning malakaviy bilimini takomillashtirib, soha salohiyatini mustahkamlashda quyidagi uslublarga rioya qilish lozim:

- xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga oid uslubiy tavsiyanoma, qo‘llanma yozish;
- folklor san‘atini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida joylarda folklor-etnografik ekspeditsiyalarni uyushtirish;
- Ekspeditsiya chog‘ida to‘plangan matn va materiallarni tahlil qilish va nashrga tayyorlash;
- An‘ana, marosim va udumlarning avloddan-avlodga o‘tib kelishidagi merosiylik va ayrim boshqa muammolarini tadqiq qilish;
- Joylarda xalq og‘zaki ijodini o‘rganishni kuchaytirish va folklor etnografik yoki havaskorlik jamoalarni tashkil qilishni o‘rganib chiqish;
- Havaskorlik jamoalarni tuzishda tajribalarni muvofiqlashtirish;
- Folklor asarlarni sahnalashtirishda qiyosiy yondashuv mezonlarni o‘rganib chiqish;
- Sahna bezaklari bilan bog‘liq marosimlarni ijro qilishda xalq amaliy san‘ati va boy etnografik manbalardan keng foydalanish;
- Sahna asarlarini yaratishda hunarmandchilik, kashtachilik, kandakorlik, zargarlik, zardo‘zlik san‘atidan foydalanish;
- Folklor asarlarini sahnalashtirishga lokal, lingvistik xususiyatlarga e‘tibor berish;
- Madaniyat va aholi dam olish markazlari va istiroxat bog‘larida tashkil qilingan tadbirlar va sayllarda havaskorlik jamoalarining o‘ziga xos chiqishlarini yaratish;
- Milliy va ommaviy bayramlarda folklor san‘atining sahnaviy ko‘rinishlarini tashkil etish;
- Mazkur bayramlarda folklor san‘atining nodir namunalardan foydalanish;

Umuman olganda, ommaviy bayramlar avloddan-avlodga o‘tib, sayqallangan holda bizning kunimizgacha yetib kelgan. Ayniqsa havaskorlik jamoalari badiiy ijrochiligining ommaviy bayramlardagi ijrosi tadbir salohiyatini yanada oshiradi.



Xalq ma'naviy merosi sanalmish ommaviy bayramlar folklor ijrochiligi bilan o'z salohiyatini yanada oshiradi. Ulardagi har bir ijro xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vositadir. Bugungi sharoitida bayramlarning nufuzini oshirish uchun qadimiy an'analarimiz, udum va marosimlarimizdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu ma'naviy boylikni ko'z qorachig'iday saqlab, kelgusi avlodga to'laligicha yetkazish har bir mutaxassisning, ijrochining mas'uliyati burchi hisoblanadi.

Hozirgi kunda mustahkam bilimni, milliy qadriyat, ma'naviy barkamollik, umrboqiy an'analar va ajdodlar ta'limotini yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirishda folklor san'atidan foydalanish, shuningdek, maxsus dasur, darslik va qo'llanmalar tayyorlash muhimdir. Folklor san'atini maxsus ta'lim tarzida kollejlarda, musiqa maktablari, san'at oliy o'quv yurtlarida madaniyat hodimlarini o'qitilishi yoshlarning milliy g'ururini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ota-bobolardan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni sahnaga olib chiqib, yana ularni xalqqa qaytarishda folklor san'ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, havaskor jamoalari xalqimizning urf-odatlarini, e'tiqodlarini va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etmoqda. Ular dasturida mujassamlashgan xalq ijodi namunalari folklorning sahnaviy ko'rinishi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Havaskorlik jamoalari xalq og'zaki ijodiyoti an'analarini tiklash va takomillashtirishda yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, milliy marosimlariga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e'zozlashga hissalarini qo'shmoqdalar. Har bir havaskorlik jamoalari mustaqil Respublikaning turli viloyatlarida faoliyat ko'rsatib, shu xalqning takrorlanmas ma'naviy-madaniy merosi bo'lmish udumlarini, marosim va rasm-rusumlarining o'ziga xos xususiyatlarini turfa xil ko'rinishlarda namoyon etmoqdalar.

Havaskorlik jamoalari istiqbol tufayli an'ana va marosimlarimizni bugungi avlodga qadimda ular qanday bo'lsa, shundayligicha yetkazilishi, ijrochilik mahoratini ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar. Havaskorlik jamoalari o'z dasturidagi

marosimlar, qo‘shiqalar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turfa xil namunalari o‘z muxlislariga tanishtirish orqali ona diyorumizning muqaddas an‘analariga sodiq qolish, uni e‘zozlashni ibrat qilib ko‘rsatishlari ahamiyatlidir.

havaskorlik jamoalari dasturlarining yana bir ibratli tomoni Vatanimizning boy ma‘naviyatini ko‘z qorachig‘iday saqlash – eng yuksak axloqiy fazilatlar, umuminsoniy sifatlar ekanligini uqturmoqdalar.

Hozirgi mavjud havaskorlik jamoalar xalq oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalari, turfa xil marosim, an‘analar orqali milliy qadriyatlarimiz, qadimiy an‘ana va marosimlarimizni tiklab, rasm-rusum va udumlarimizni o‘z dasturlarida namoyish etish, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar.

Shu bois, havaskor jamoalar ota-bobolarimiz asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelgan qadriyatlar orqali istiqloq mafkurasini yaratishga, uni

yoshlar turmush tarziga singdirishga yordam berib, kelajagi buyuk o‘zbek yurtining haqiqiy egalari bo‘lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi va yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tariladi degan umiddamiz.

Folklor san‘atni bevosita udum va marosimlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlantirishning o‘z o‘rni va ahamiyati katta. Zero, yetilib kelayotgan barkamol avlod O‘zbekistonni jahonga tanitishi, yurtimizning milliy qiyofasini namoyish etuvchi asriy tafakkur durdonalarini dunyo xalqlari orasida keng ommalashtirishda bugungi kun yoshlarining iqtidori, bilimi, intiluvchanligi yetarli. Shunday iqtidorli yoshlarimizni jahon andozasiga mos mutaxassislar qilib yetishtirishda, milliy istiqloq ruhida tarbiyalashda folklor san‘atning o‘rni beqiyosdir. Chunki san‘atga oshufta bo‘lgan qalbalardan hech qachon yomonlik xiyonat chiqmaydi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda ustuvor o‘rin tutadi. Ushbu muassasalari faoliyati samaradorligiga erishish esa «Yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash» sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari bilan maktab faoliyatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish barkamol, malakali shaxsni tarbiyalashda ijobiy natijalarga

erishishni kafolatlaydi. Shu sababli Madaniyat va aholi dam olish markazlari tizimida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikka erishish chora-tadbirlarini belgilashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Har ikki muassasalari faoliyatlarini o'rganish, tahlil etish ular o'rtasidagi hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'yish mumkinligini ko'rsatdi:

1. O'quvchilarning maktabdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish.
2. O'quvchilarning qobiliyat va imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish chora-tadbirlarini belgilash.
3. Ta'lim va tarbiya jarayonining nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishish hamda metodik ta'minotini yaxshilash.
4. Pedagoglar o'rtasida o'zaro tajriba almashilishini yo'lga qo'yish.
5. Turli mavzudagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni birgalikda uyushtirish.

Mavjud manbalarni nazariy jihatdan o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilish, pedagogik amaliyotni bevosita kuzatish hamda tajriba ishlarini yo'lga qo'yish Madaniyat va aholi dam olish markazlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning quyidagi shakllarda yo'lga qo'yilishi kutilgan natijalar bera olishini tasdiqladi: ijodiy muloqotlar; doimiy harakatdagi seminarlar; pedagogik o'qishlar; ilmiy anjumanlar; amaliy treninglar; ta'lim va madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan metodik birlashmalarning qo'shma yig'ilishlari; o'zaro pedagogik faoliyatni kuzatishlar; nazariy va metodik adabiyotlar taqdimotlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga Madaniyat va aholi dam olish markazlari va ularning faoliyat yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlarni berib borish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida suhbat, davra suhbat, uchrashuv hamda ko'rgazmalarni tashkil etish asosida Madaniyat va aholi dam olish markazlari, ular qoshida tashkil etilgan to'garaklar, to'garak a'zolari tomonidan qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, o'quvchilarning turli tanlov va ko'riklarda ishtirok etish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berib borish ularda mavjud bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarni qondirish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilishiga turtki beradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi, bolalar ijodiyoti markazlari a'zolari ishtirokida bayramlar, konsert va musobaqalarning uyushtirilishi ham o'quvchilarning ushbu muassasalar faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi obro'-e'tibori, xalqaro maydondagi o'rni, iqtisodiy qudrati hamda intellektual salohiyatini ta'minlash muhim vazifa bo'lib, bu vazifani amalga oshirishda oila muhim rol o'ynaydi. Binobarin, oilalar mamlakat istiqbolini yaratuvchi, ertangi yorqin hayotini ta'min etuvchi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda ijtimoiy tarbiya maskani hisoblanadi.

«Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida oilaning jamiyat rivoji hamda shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi rolga yuqori baho berilib, quyidagilar qayd etiladi<sup>1</sup>. Oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit sog'lom mafkurani shakllantirishning eng muhim manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi».

Insonning ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi xulqiga eng samarali ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlardan biri-oila sanaladi. Shu sababli juda qadimdan o'q oilaning tarbiya-pedagogik imkoniyatlarini o'rganish ko'plab mutafakkirlar hamda zamonaviy olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Totalitar tuzum davrida oila umumiy vazifani bajarish, ya'ni, shaxsni davlatga bo'ysundirish vazifasini hal etishda faqat yordamchi institut sifatidagina qatnashgan bo'lib, shu sababli oila tarbiyasida milliy xususiyatlar inobatga olinmas, aksincha, umumjamiyat manfaatlariga tayangan holda ish ko'rilar edi. Pedagogika fani imkoniyatlari esa shaxsni har tomonlama rivojlantirishga emas,

---

<sup>1</sup>Куронов М. Миллий тарбия. -Тошкент: Шарқ, 2007. Б. 78.

balki asosan ta'lim muassasalari va boshqa bolalar jamoalari faoliyatini markazlashtirishga yo'naltirilgandi.

O'zbekistonda oila, uning ijtimoiy mavqei, shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli masalalari A.Q.Munavvarov, M.Inomova, O.Musurmonova, V.Karimova, O.Hasanboyeva, M.Xolmatova va boshqalar tomonidan batafsil o'rganilgan.

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridaijodkorlikni va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda qo'shimcha ta'lim muassasalari bilan oilalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu hamkorlik mazmunida o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi ijtimoiy va oilaviy tarbiya imkoniyatlari aks etadi.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilayotgan mustaqillik sharoitida O'zbekistonda shaxs individualligi birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi. Binobarin, shaxs omili birlamchi ekan, uning tarbiyasi va ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy kuchidan samarali foydalanish tadbirlarini belgilash zarur.

Binobarin, shaxs oila jamiyatning o'zaro ta'sir modelining yo'nalganligi to'g'ri hamda teskari aloqa xususiyatiga ega bo'lib, ushbu aloqaning yagona maqsadi - komil insonni tarbiyalashga yo'naltirish talab etiladi. Shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash jarayonida oilaning iqtisodiy (ishlab chiqarish) imkoniyatlari ustuvor o'rin tutishi tan olinishi kerak. Bu holat amaliy faoliyatda boshlang'ich, tayanch negizni qayta ko'rib chiqish, oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning metodologik asoslari sirasida shaxs manfaati birlamchiligi tamoyilini o'zgartirishga olib keladi.

«Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham aks etadiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson

organizmi ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo'tadil iqlimni hosil qila oladi. Aynan shu tufayli inson oilada o'zini erkin his etadi»<sup>7</sup>.

Shaxs ijtimoiylashuvi bevosita oilada kechadi. Boshqa ijtimoiy institutlar doirasida esa mazkur ijtimoiylashuv tobora mustahkamlanib, murakkab xususiyat kasb etib boradi. Biroq, shunga e'tibor berish zarurki, oilalar jamiyatning «beminnat xizmatchisi» sifatida maydonga chiqishi emas, balki jamiyat oilalarga har tomonlama yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Ayni vaqtda ko'pgina rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Germaniya va boshqalar) ta'lim tajribasida ijtimoiy xizmat doirasida «bo'sh vaqt tashkilotchisi» lavozimi joriy etilgan. Bo'sh vaqt tashkilotchisi bo'lgan mutaxassis «animator» (fran. «animer» - ilhomlantirmoq, faoliyatga undamoq ma'nosini bildiradi) deb nomlanib, uning vazifasi -oilalarga ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. Bo'sh vaqt tashkilotchilari guruhini asosan Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat yurituvchi pedagoglar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonidagi: «Har tomonlama jismoniy, ma'naviy va aql-zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda qat'iy bilimlar, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhitning boyligi va xilma-xilligi, jahon madaniyati bilan keng tanishtirish, mustahkam va sog'lom oilani shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlantirish»<sup>8</sup> masalalarini ijobiy hal etish maqsadga muvofiq ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Ota-onalarni Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'lim maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, ota-onalar o'rtasida pedagogik ma'rifatni tashkil etish, ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi sanaladi.

---

<sup>7</sup>Хожиаҳмедов А. Маҳалла одоби. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 154-157.

<sup>8</sup>Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1991. – Б. 24-26.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari bilan oila (ota-onalar) o'rtasidagi hamkorlik doirasida bir qator muhim vazifalar hal etiladi. Jumladan: bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatlari ularning hamkorlikda rivojlanishi va ma'naviy boyib borishlari uchun imkoniyat yaratadi; bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning oilaviy shakllarini takomillashtiradi.

Oila va Madaniyat va aholi dam olish markazlari bir-birlarini to'ldiradi, turli yoshdagi bolalarning ta'lim olishi va ijodiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oiladagi kabi o'quvchilar Madaniyat va aholi dam olish markazlarida ham o'zlarining himoyalaganliklarini his qiladilar. Binobarin, ta'limning mazkur tizimida har qanday zo'ravonlik, tahdid va tanbehlariga asoslanuvchi avtoritar uslub inkor etiladi.

Dialog ta'lim jarayoni subektlari (pedagog va o'quvchi) o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning eng samarali shakli, o'quvchi shaxsi kamolotini ta'minlash vositasi sanaladi. Zero, u axborot, ma'lumotlar bilangina emas, balki o'y-kechinmalar, farazlar va baholar tarzida o'zaro fikr almashishni nazarda tutadi. Shaxsiyatli-mazmunli dialog pedagogik natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.

Texnologik dasturlarni loyihalash uning mualliflari uchun mashaqqatli, biroq ijodiy jarayon. Bu jarayonda pedagog o'z bilimi, salohiyati, ko'p yillik ish tajribasiga tayangan holda izlanadi hamda o'quv fani bo'yicha yaratilgan namunaviy dasturda ko'rsatilgan talablarga mexanik ravishda ergashmaydi. Shunga ko'ra bunday metodikalar muayyan faoliyatni umumiy yoki uning ayrim qismlarini tashkil etuvchi maxsus bilimlar yig'indisi hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida asoslangan dasturlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya metodikalariga yaqin bo'lishi bilan birga bir-birlaridan farq qiladi. Zero, pedagogik faoliyat metodikasi «Nima qilish kerak?», «Qanday qilib?» va «Qay tarzda?» kabi savollarga javob berishga yo'nalganligi bilan pedagogning amaliy harakatlarini ifodalaydi. Shuningdek, u muayyan faoliyatni tashkil etishga

qaratilgan harakatlar va ularni bajarish texnikasining mantiq, maqsadi hamda vazifalarini aks ettiruvchi harakatlar tizimi.

Pedagog faoliyatida amaliyotda qoʻllanilib kelinayotgan metodik tizimlardan foydalanish bilan birga oʻzi tanlagan maqsad sari intilish, faoliyat samaradorligiga erishishning oʻziga xos yoʻllarini asoslashi, jarayonga mustaqil yondashishi ham mumkin.

Metodik faoliyatning umumiy funksiyalari:

- mavjud bilimlar oʻrtasida integratsiyani yuzaga keltirish;
- fan va taʼlim hamkorligiga erishish;
- faoliyatni loyihalash va uygʻunlashtirish;
- refleksiyaning iborat.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiluvchi metodik faoliyat quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- taʼlim dasturlarini ishlab chiqish, faoliyatni loyihalash va muassasa faoliyatini rivojlantirish jarayonida professional darajada (boʻlim metodisti, muassasaning metodik markazi yoki xizmati tomonidan)gina emas, balki pedagoglar va maʼmuriyat tomonidan amalga oshiriladi;

- pedagog shaxsi, uning pedagogik faoliyati, oʻquvchilar bilan oʻzaro hamkorligi va muloqotini namoyon etadi;

-oʻzida kasbiy faoliyat muhitining mavjud holati, oʻtmish tajribalari va anʼanalarga bogʻliqlikni ifodalaydi;

-muassasa ichida va u mansub boʻlgan tizimda faoliyatning turli yoʻnalishlari hamda ular oʻrtasidagi ichki farqlarni belgilaydi;

-koʻp qirrali faoliyat, muloqot hamda oʻquvchi individualligini rivojlantirish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida pedagogning oʻrnini koʻrsatadi; bu oʻrinda pedagogning kasbiy tajribasi: «boshqalar uchun psixologik xavfsizlik, shuningdek, oʻz shaxsi, oʻzligini namoyon qilishi (joriy etishi) uchun qulay muhit yaratib bera olish» kabi shiorga asoslanishi zarur.

«Pedagogik texnologiya» mohiyatiga koʻra faqat keng tushuncha va keng koʻlamli faoliyatni qamrab oluvchi omilgina emas. Texnologiya muayyan,



oldindan belgilangan maqsadlarga erishish yoʻlida tashkil etiluvchi har bir harakatni aniq tavsiflovchi ilmiy tahlil va oʻlchov birligidir. Metodika esa shaxsiy tajribaga tayangan holda muayyan jarayonning samarali kechishini taʼminlashga yoʻnaltirilgan pedagogik faoliyat boʻlib, unda umumiy jarayon emas, balki alohida olingan vaziyat uchun samarali shakl, metod va vositalar tavsiya etiladi.

Maktabgacha taʼlim bola sogʻlom, hartomonlama kamol topib shakllanishini taʼminlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam taʼlim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha taʼlim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha taʼlim maqsadi va vazifalarini ruyobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Ayni paytda oilaviy tarbiyaning asosiy kamchiliklari Madaniyat va aholi dam olish markazlari ishida ham oʻz aksini topmoqda. Bu holat Madaniyat va aholi dam olish markazlari pedagogning nomunosib mavqei, oʻquvchilar bilan samimiy munosabatda boʻla olmasligi, ularning individual psixologik va fiziologik xususiyatlaridan yaxshi xabardor boʻlmasligi, turli vaziyatlarda individual yoki jamoaviy taʼsir koʻrsatish vositalaridan foydalana olmasligida namoyon boʻlmoqda.

Pedagog oʻquvchi shaxsining shakllanishi va taraqqiy etishiga jiddiy taʼsir koʻrsatuvchi obroʻli shaxs boʻla olishi zarur. Zero, uning faoliyati bilan bogʻliq ayrim xususiyatlar oʻquvchilarni Madaniyat va aholi dam olish markazlariga faol jalb etishga yordam beradi. Bu oʻrinda pedagog shaxsi va kasbiy malakasiga xos boʻlgan bir qator xususiyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jumladan:

1) bola Madaniyat va aholi dam olish markazlari tizimida oʻzi uchun qiziqarli faoliyat yoʻnalishinigina emas, shu bilan birga pedagogni ham tanlash imkoniyatiga ega;

2) soʻz yuritilayotgan tizim pedagogining mutaxassislik yoʻnalishida yuqori darajada mahoratli boʻlishi, uning uchun etalon sanaladi;

3) Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat boshqa ta'lim muassasalaridan farqli tashkil etiladi, ya'ni, subekt o'rtasidagi munosabat norasmiylik, oshkoralik va samimiylikka asoslanadi.

Ota-onalar ijtimoiy-pedagogik yo'nalishda pedagog bilan o'zaro hamkor bo'la olsalar, uning faoliyati yanada samarali bo'ladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining pedagogi ota-onalarni qayta tarbiyalash va oilaviy tarbiya uslubini o'zgartirish imkoniyati, huquqiga ega emas. Binobarin, bu harakatlar uning kasbiy vakolatlari sirasiga kirmaydi. Pedagog oilaviy tarbiya jarayonini tashkil etishga pedagogik ta'sir o'tkazish yo'li bilan o'quvchi shaxsini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishda yordam berishi mumkin. Ushbu holatda oila yoki bolaning ota-onasi emas, balki oilaviy tarbiya kasbiy ta'sir obekti bo'lib maydonga chiqadi.

Pedagog tomonidan ota-onalarning Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining konsepsiyasi, ushbu muassasalarda o'quvchilarni rivojlantirish yo'lida amalga oshiriluvchi faoliyat maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va ularning shaxsga yo'nalganlik imkoniyatlari hamda ijtimoiy-pedagogik ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirilib borilishi o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi sanaladi. Shu maqsadda pedagogik ma'rifat tizimini joriy etish foydadan holi bo'lmaydi. Binobarin, Madaniyat va aholi dam olish markazlari va ularning faoliyat yo'nalishlari to'g'risidagi axborotlar ota-onalarni faollashtiradi, ularning farzandlarning qiziqish va xohish-istaklaridan xabardor bo'lishlariga imkon beradi. Bu holatlar oilaning tarbiyaviy ta'sirini yanada oshiradi, natijada ularda mazkur ta'lim muassasasiga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari pedagog va murabbiylari ish tajribasining ko'rsatishicha, ularning ota-onalar bilan o'zaro hamkorliklari quyidagi darajalarda tashkil etiladi:

1-daraja-pedagog va ota-onalarning shaxsiyatli, bevosita muloqoti;

2-daraja-pedagogning ota-onalar jamoasi bilan ota-onalar faollari orqali bilvosita o'zaro ta'siri;

3-daraja -pedagog hamda ota-onalar jamoalarining ijtimoiy roli aloqalari.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari amaliyotida turli xil ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda o‘zaro hamkorlikning bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi barcha darajalaridan foydalaniladi. Ota-onalar ushbu pedagoglar, to‘garak rahbariga murojaat etib, farzandlarining muammolarini hal etishga mo‘ljallanilgan norasmiy shaxsiy munosabatni kutadilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari pedagogining ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi ularni ta’lim jarayoniga maksimal darajada jalb etishga, ularda subektiv faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat esa aksariyat ota-onalarda o‘quvchi hayotining mo‘tadil kechishida ularni yoshlikdanoq muayyan kasb yoki hunarga o‘rgatish, bu yo‘lda Madaniyat va aholi dam olish markazlarining imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi haqidagi tushunchalarni hosil qiladi.

Shu bilan birga ta’kidlash joizki, agar pedagog o‘z oldiga «ota-onalar imkoniyatlaridan» samarali foydalanish maqsadini qo‘ymas ekan, Madaniyat va aholi dam olish markazlari va oilalar o‘rtasidagi ijtimoiy sherikchilikka asoslanuvchi hamkorlik to‘la qaror topmaydi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari tizimida yuqorida tilga olingan barcha shartlarga rioya qilingandagina oila bilan o‘zaro hamkorlik quyidagi katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- ota-onalar uchun psixologik-pedagogik ma’rifat targ‘ibotini tashkil etish asosida oilaning pedagogik imkoniyatlarini oshirish, Madaniyat va aholi dam olish markazlarining ichki imkoniyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-psixologik, pedagogik, yuridik va tibbiy maslahatlar tashkil etish;

- ota-onalarning to‘garaklar mashg‘ulotlariga qatnashishlariga erishish, qiziqishlari bo‘yicha oilaviy klublar tashkil etish, o‘quvchilarning qobiliyatlariga muvofiq muayyan yo‘nalishda ta’lim jarayoniga jalb etish;

- oilaviy bayramlar, musobaqalar va festivallar, oilaviy ma’ruzalar, dam olish klublarini tashkil etish asosida bo‘sh vaqtni o‘quvchilar va ota-onalarning birgalikda o‘tkazishlariga imkon beruvchi tizimni yaratish;

- faol ota-onalar klublari, vasiylar kengashlari, muassasa pedagogik Kengashining ota-onalar shoʻbasi, ota-onalar qoʻmitalarini shakllantirish;
- oilalarga bolalar va ota-onalar oʻrtasidagi munosabatlar muammolarini hal etishda psixologik-tuzatish tadbirlari tizimi asosida amaliy yordam koʻrsatish;
- ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan oilalarga oʻzaro hamkorlikka asoslanuvchi ijtimoiy xizmatlar vositasida yordam koʻrsatish.

Xullas, hozirgi vaziyatida oila va Madaniyat va aholi dam olish markazlarining oʻzaro aloqasi, hamkorligi va birgalikdagi harakatlari muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi deb hisoblash mumkin.

## **XULOSA**

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil qilingan badiiy ijodiy jamoalarda sanʼat va xalq ijodiyoti sohalarini uzluksiz oʻzlashtirib borish asosida tarbiyalash muhim pedagogik ahamiyatga ega boʻlgan masalalardan biri ekanligi uqtirildi. Bu muhim ishlarni amalga oshirishda yoshlarning shaxsiy ehtiyojlardan

kelib chiqib, ularni bo'sh vaqtlari va dam olishlarini to'g'ri tashkil etishda madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etilgan havaskorlik yoki folklor-etnografik jamoalarining ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bu ilmiy muammo kerakli ilmiy tadqiqot obekti sifatida o'rganildi. Muammoning ilmiy yechimi badiiy vositadar orqali yoshlarni tarbiyalashda samarali foyda beradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridahavaskorlik jamoalari milliy istiqlol g'oyalari asosida yoshlar ongida shakllantirishning mavjud ahvolini tahlil qilish quyidagi xulosaga olib keldiki, yoshlar havaskorlik jamoalari ishtirokchilarining milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni o'rganishi, san'at va xalq ijodiyoti sohalarini o'zlashtirish borasida va ularni keng, murakkab, serqirra tasavvur qilishida bir qator nuqsonlar mavjud. Buning sabablari, birinchidan, jamoa rahbarlari faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan havaskorlik jamoasining faoliyati dasturi va qo'llanmalarida o'smirlarga milliy san'at va xalq ijodiyoti orqali ma'naviy tarbiya berishga yetarli o'rin ajratilmaganligidadir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida san'at va xalq ijodiyoti sohalarini o'zlashtirib borasida yetarli imkoniyatlar mavjud holda ulardan foydalanilmayotganligi achinarli holat hisoblanadi. Shu bois, milliy san'at va folklor namayondalarini madaniyat va aholi dam olish markazlari ishlariga faol jalb qilish yo'llarni tashkil qilish lozim.

Yoshlarni san'at va folklorshunoslik sohalarini uzluksiz o'zlashtirib borish asosida tarbiyalash, bilim va malakalarini takomillashtirish, musiqiy nazariy tayyorgarligini oshirish, badiiy vositalarni musiqa va amaliy ijodiyot sohalarini g'oyalarni tahlil qilish, turli hil bayram va tadbirlarni tashkil etish, konsert safarlari, sayrlar, ekskursiyalar, sayohatlar, musobaqa va turli ommaviy ishlarni tashkil qilish, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish lozim.

Prezident Islom Karimovning ta'kidlashicha, "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. bu borada, tabiiyki ma'naviy

meros, madaniy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi”. Shu bois, madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan havaskorlik jamoalarning asosiy faoliyati milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va anʼanalarimizni oʻrganish va qayta tiklash lozim. Buning uchun albatta, markazlarning faoliyati shakllarini mukammallashtirish lozim boʻladi. ayniqsa, bu borada ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning ishlaridan, mintaqalardagi turli xalq etnografik jamoalarini oʻrganish, shubilan birga, Respublika hududi boʻylab folklor-etnografik ekspeditsiyalar uyushtirilishi lozim. Har bir madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalarining dasturi, yoshlar bilan ishlash rejasi va turli darajadagi oʻquv qoʻllanma va uslubiy qoʻllanmalar bilan taʼminlangan boʻlishi lozim. Shu bois, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Birinchidan, madaniyat va aholi dam olish markazlarida havaskorlik jamoalar bilan ishlash rejalari, dasturlari ishlab chiqilishi lozim;

Ikkinchidan, ushbu havaskorlik jamoalarning hududiy jihatdan farqlar mavjud ligi bois, ularning tarixi, farqli xususiyatlari, anʼanalari, urf-odatlari haqidagi asarlar, oʻquv uslubiy qoʻllanmalar nashr qilinsin;

Uchinchidan, madaniyat va aholi damoli markazlaridagi havaskorlik jamoalarining chiqishlarida asosan yoshlar qiziqishi, dunyoqarashi bilan bogʻliq anʼanalar, marosimlar tashkil qilish, tadbirlar ishlab chiqilsa ijobiy natija beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil

istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil

4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 1992.

7. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. – T.: O'zbekiston, 1996-2011.

8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2013 yil 25 iyunda "2013 – 2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / Xalq so'zi. 2013 yil 26 iyun.

### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. -T.: “Farg'ona”, 1998 y.

2. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Madaniyatshunoslik asoslari. -T.: Turon-iqbol, 2006 y.

3. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet, -T.: 2011

4. Axmedova E, Gubaydullin R.. Kulturologiya. Mirovaya kultura. -T.: 2001

5. Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. -T.: Muxarrir, 2010y.

6. Sh.Alimova “Madaniy-marifiy faoliyat asoslari” T: G'.G'ulom, 2008 46-bet

### **Qo'shimcha:**

1. Arzimatova I. Estetik madaniyat. -T.: Fan, 2007.

2. Axundjanov E.A. Pismennaya kultura Sredney Azii. –T.: 2000.

3. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. -T.: Yangi asr avlodi. -2010.
4. Boboyev H., Hamroyev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. -T.: Yangi asr avlodi. 2001.
5. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasini. -T.: O'zbekiston, 1999. -221 b.
6. Istoriya mirovoy kulturi. Filosofsko-esteticheskiy analiz.-M.: Turan, 1997. –S. 273.
7. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. -T.: 2004 y.
8. Karabayev U. Etnokultura. -T.: Shark, 2005.
9. Karimov B. Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. -Qarshi: Nasaf, 2003. .
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. -T.: Universitet, 2009. -127 .
11. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.-T.: O'qituvchi, 1997.
12. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. -T.: O'qituvchi, 1996.
- MEDIA MARKAZI, 2007. -126 B.
13. Soatov G'. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati.-Qarshi: Nasaf, 2004.
14. Xantington S. Stolknoveniye sivilizatsiy. -M.: "AST", 2005.
15. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi.-T.: O'zbekiston, 2000.
16. Shermuxamedov S., Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. -Farg'ona, 2000.
17. O'tanova U. Xalq madaniyati: tarixi, nazariyasi, muammolari. –T., 2007.
18. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. -T.: Sharq, 2002. -239 .
19. Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. -286.
20. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. -T.: San'at, 2001. -56 .
21. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat.-T.: CHASHMA PRINT, 2008. -159.



22. Abdullayev M., Ibragimova F. Badiiy-estetik madaniyat: nazariy metodologik jihatlar. –T.: Fan, 2007. -132.
23. Nishonova N., Risqulova K. Sogʻlom turmush madaniyati. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -127 .
24. Saʼdullayev N., Aminjonova M. Madaniyatimiz tarixidan lavhalar. –T.: Oʻzbekiston, 1998. -85.
25. Qoraboyev U., Soatov Gʻ. Oʻzbekiston madaniyati. –T.: TAFAKKUR-BOʻSTONI, 2011. -193 .
26. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. –T.: Adolat, 2003.
27. Rtveladze E.V., Saidov A., Abdullayev YE.V. Ocherki istorii sivilizatsii drevnogo Uzbekistana: gosudarstvennost i pravo.-T.: Adolat, 2000.
28. Maʼnaviyat. Asosiy tushunchalar izohli lugʻati. Nazarov Q tahrir–T.: Gʻafur Gʻulom, 2009. -759 b.
29. Mnogolikaya globalizatsiya . Kulturnoye raznoobraziye v sovremennom mire. Pod red. P. Bergera, S. Xantingtona. –M.: ASPEKT-PRESS, 2004.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Agzamxodjayeva S.S. Ijtimoiy ideal va Oʻzbekistonda maʼnaviy taraqqiyot muammolari. Fals. fan. dokt. dis. –T., OʻzMU, 2008.
2. Alimasov V.A. Oʻzbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida madaniy-maʼrifiy muassasalar rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari. Fals. fan. dokt. dis. -T., 2001.
3. Karabayev U.X. Traditsionnaya narodnaya kultura: tendensii vozrojdeniya i razvitiY. Avtoref. dis. dokt. filos. nauk. –T., 1993.
4. Nurmatova M.A. Shaxs maʼnaviy kamolotida estetik va axloqiy qadriyatlar uygʻunligi muammosi: Fals. fan. dokt. dis. avtoref. –T.: OʻzMu, 2011. -38 b.
5. Utanova U.A. Mustaqil Oʻzbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi (falsafiy-madaniy yondashuv). Fals. fan. nom. dis. avtoref. –T.: OʻzMU, 2008. -24 b.

6. Raxmatullayeva U.S. O‘zbek xalqining kiyinish madaniyati: an’anaviylik va zamonaviylik (falsafiy-madaniy yondashuv). Fals. fan. nom. dis. avtoref. –T.: O‘zMU, 2010. -24 b.
7. Ibragimova F.Q. O‘zbekiston badiiy madaniyati: yangilanish yo‘nalishlari va rivojlanish muammolari. DissertatsiY. Fals.fan.nom. –T.: 2009.
8. Muxiddinova D.M. Natsionalnaya esteticheskaya kul’tura: samabitnost i problemi razvitiY. DissertatsiY. Kand.filos.nauk. –T.: 2006.

**Elektron ta’lim resurslari:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)

[www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz)

**Ilova**

O‘zbekistonda madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi “Xalq” va “Namunali” unvonga ega havaskorlik jamoalari

| № | Jamoaning nomi | Tashk il topga | Unvo n olgan | Qatnashchi lar soni | Shtat birligi | rahbari | Manzili |
|---|----------------|----------------|--------------|---------------------|---------------|---------|---------|
|   |                |                |              |                     |               |         |         |

|                               |  | n yili | vaqti |    |   |                                  |  |
|-------------------------------|--|--------|-------|----|---|----------------------------------|--|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi |  |        |       |    |   |                                  |  |
| 1                             | “Bes perde”<br>havaskorlik<br>jamoasi        | 1985   | 1993  | 42 | 2 | Alimbetov<br>Davlat              | Chimboy<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi    |
| 2                             | “Oq mang‘it<br>tongi”<br>havaskor<br>jamoasi | 1993   | 2008  | 10 | 3 | Tolegenov<br>Shamurat            | Nukus<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi      |
| 3                             | “Ofarin”<br>havaskorlik<br>jamoasi           | 2005   | 2008  | 14 |   | Saparboyev<br>Rinat              | Amudaryo<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi   |
| 4                             | “Meros”<br>havaskorlik<br>jamoasi            | 1989   | 2000  | 12 | 3 | Abdumuratov<br>Qo‘ng‘irotbo<br>y | Qo‘ng‘irot<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 5                             | “Ming<br>tumen”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 1990   | 2006  | 22 |   | Nosirov<br>Jo‘ldasboy            | Karauzak<br>tuman<br>Qorako‘l<br>qishloq                             |

|                  |   |      |      |    |   |                       |  |
|------------------|---|------|------|----|---|-----------------------|--|
|                  |   |      |      |    |   |                       | madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi                      |
| Andijon viloyati |   |      |      |    |   |                       |  |
| 1                | “Zilol”<br>havaskorlik<br>jamoasi       | 1992 | 2000 | 29 | 3 | Yunusova<br>Olmaxon   | Baliqchi<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| Buxoro viloyati  |   |      |      |    |   |                       |  |
| 1                | “Moxi sitora”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 1985 | 1988 | 8  | 3 | Majidova<br>Sharifa   | Buxoro sh.<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi        |
| 2                | “Nozanin”<br>havaskorlik<br>jamoasi     | 1984 | 1988 | 15 | 2 | Sharipova<br>Roziya   | Buxoro sh.<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi        |
| 3                | “Mardona”<br>havaskorlik<br>jamoasi     | 1989 | 1994 | 20 | 2 | Ja’farov<br>Xusniddin | Vobkent<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi  |
| 4                | “Afsona”<br>havaskorlik                 | 1986 | 1989 | 20 | 3 | Avezov<br>Burhon      | Peshko‘<br>tuman   |

|                 |  |      |      |    |   |                      |  |
|-----------------|--|------|------|----|---|----------------------|--|
|                 | jamoasi  |      |      |    |   |                      | madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi                              |
| 5               | “Mirishkor”<br>havaskorlik<br>jamoasi          | 1997 | 2000 | 19 | 2 | Avezov<br>Shahlo     | Peshko‘<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi          |
| 6               | “Qasri<br>Orifon”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 2000 | 2003 | 26 | 3 | Jumayev<br>Fatxullo  | Kogon<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi            |
| 7               | “Mavji<br>Buxoro”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 1986 | 2010 | 27 | 2 | Otamurotov<br>Rustam | Buxoro<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi           |
| Jizzax viloyati |  |      |      |    |   |                      |  |
| 1               | “Bag‘don<br>gullari”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 1978 | 1996 | 25 | 3 | Mavlonov<br>Baxtiyor | Forish<br>tumani<br>Sayod<br>qishloq<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish |

|                 |  |      |      |    |   |                           |   |
|-----------------|--|------|------|----|---|---------------------------|---|
|                 |  |      |      |    |   |                           | markazi   |
| 2               | “Gashtak”<br>havaskorlik<br>jamoasi          | 1991 | 1997 | 60 | 4 | Jumanazarov<br>Ahmad      | G‘allorol<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi        |
| 3               | “Zebomxon”<br>havaskorlik<br>jamoasi         | 1985 | 2000 | 35 | 3 | Tursunboyev<br>a Shahzoda | Jizzax<br>shahar<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 4               | “Zomin<br>sayqali”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 2001 | 2008 | 22 | 3 | Jianmurotov<br>Shamsiddin | Zomin<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi   |
| Navoiy viloyati |  |      |      |    |   |                           |   |
| 1               | “Nurjahon”<br>havaskorlik<br>jamoasi         | 1991 | 1996 | 22 | 2 | R.Jumayev                 | Nurota<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi  |
| 2               | “Xushonzam<br>on”<br>havaskorlik<br>jamoasi  | 1987 | 2007 | 17 |   | Mirzayeva<br>Gulnora      | Navbahor<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish           |

|                    |  |      |      |    |   |                             |  |
|--------------------|--|------|------|----|---|-----------------------------|--|
|                    |  |      |      |    |   |                             | markazi  |
| 3                  | “Yor yor”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 1986 | 2013 | 18 |   | G.<br>Eshpo‘latov           | Xatarchi<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi       |
| Namangan viloyati  |  |      |      |    |   |                             |  |
| 1                  | “Yor yor”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 1973 | 2008 | 40 |   | Rahmatullaye<br>va Yoqutxon | Namangan<br>shahar<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi      |
| Samarqand viloyati |  |      |      |    |   |                             |  |
| 1                  | “Beshqarsak”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 1954 | 1957 | 40 | 2 | Qodirov<br>Bayron           | Urgut<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi          |
| 2                  | “Sarbon”<br>havaskorlik<br>jamoasi     | 1985 | 1991 | 40 | 2 | Shodmonov<br>Nurollo        | Kattaqo‘rg‘<br>on tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 3                  | “Chavqi”<br>havaskorlik<br>jamoasi     | 1986 | 1988 | 25 | 2 | Nurov<br>Bahodir            | Bulung‘ur<br>tuman<br>madaniyat  |

|                      |   |      |      |    |   |                        |   |
|----------------------|---|------|------|----|---|------------------------|---|
|                      |   |      |      |    |   |                        | va aholi<br>dam olish<br>markazi                                    |
| Sirdaryo viloyati    |   |      |      |    |   |                        |   |
| 1                    | “Sayhun<br>yigitlari”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 1991 | 1999 | 8  | 2 | Haqnazarov<br>Mamaraim | Guliston<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi  |
| 2                    | “Jajanay”<br>qirg‘iz<br>havaskorlik<br>jamoasi  | 1994 | 2008 | 20 | 3 | Dushayeva<br>Oysapar   | Sardoba<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi   |
| 3                    | “Bodom<br>gullari”<br>havaskorlik<br>jamoasi    | 2005 | 2014 | 10 |   | S.Turkmanov<br>a       | Sirdaryo<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi  |
| Surxandaryo viloyati |   |      |      |    |   |                        |   |
| 1                    | “Zevari”<br>havaskorlik<br>jamoasi              | 1974 | 1994 | 24 | 2 | Bahrom<br>Hamidov      | Sariosiyo<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 2                    | “Boysun”  | 1986 | 1988 | 41 | 2 | Qodirov                | Boysun  |



|   |                                   |      |      |    |   |                  |   |
|---|-----------------------------------|------|------|----|---|------------------|---|
|   | havaskorlik jamoasi               |      |      |    |   | Abdunabi         | tuman madaniyat va aholi dam olish markazi                            |
| 3 | “Bulbulgo‘yo” havaskorlik jamoasi | 1985 | 2000 | 32 | 2 | Usmonov Rustam   | SHo‘rchi tuman madaniyat va aholi dam olish markazi                   |
| 4 | “Qo‘ng‘irot” havaskorlik jamoasi  | 1988 | 2002 | 24 | 2 | S. Eshqobilova   | Qiziriq tuman Mehnatobod qishloq madaniyat va aholi dam olish markazi |
| 5 | “Quralay” havaskorlik jamoasi     | 1994 | 1994 | 46 | 2 | Yo‘ldashev Usmon | Boysun tuman madaniyat va aholi dam olish markazi                     |
| 6 | “Mahliyo” havaskorlik jamoasi     | 1997 | 2002 | 21 | 2 | Xudayberdiyeva M | Qumqo‘rg‘on tuman Jaloyir qishloq madaniyat                           |

|                 |                                       |      |      |    |   |                     |  |
|-----------------|---------------------------------------|------|------|----|---|---------------------|--|
|                 |                                       |      |      |    |   |                     | va aholi dam olish markazi   |
| 7               | “Jayhun” havaskorlik jamoasi          | 2008 | 2012 | 40 |   | Qurbonov Sattor     | Termiz davlat universitet  |
| 8               | “Dashnobod anori” havaskorlik jamoasi | 2009 | 2013 | 20 |   | Abdurahmon Jo‘rayev | Sariosiyo tuman Dashnobod qishloq madaniyat va aholi dam olish markazi |
| 9               | “Sharshara” havaskorlik jamoasi       | 2008 | 2014 | 20 |   | B. Aliyev           | Oltinsoy tuman madaniyat va aholi dam olish markazi                    |
| Toshkent shahri |                                       |      |      |    |   |                     |  |
| 1               | “Nodirabegim” havaskorlik jamoasi     | 1989 | 2003 | 12 | 2 | Avazova Manmura     | Yunusobod tuman madaniyat va aholi dam olish markazi                   |
| 2               | “Gavhar” havaskorlik jamoasi          | 1994 | 2000 | 20 | 3 | Akbarova Durdona    | Bektemir tuman madaniyat   |


|                   |   |      |      |    |   |                       |  |
|-------------------|---|------|------|----|---|-----------------------|--|
|                   |   |      |      |    |   |                       | va aholi<br>dam olish<br>markazi   |
| 3                 | “Zeb ichra<br>ziynat”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 2010 | 2010 | 20 |   | Temur<br>Mahmudov     | Toshkent<br>shahri<br>Xalqaro<br>hamkorlik<br>markazi                        |
| Toshkent viloyati |   |      |      |    |   |                       |  |
| 1                 | “Gulyor”<br>havaskorlik<br>jamoasi              | 1977 | 1988 | 24 | 2 | Nurimova<br>Lazokat   | Bo‘stonliq<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi         |
| 2                 | “Sudarushka”<br>havaskorlik<br>jamoasi          | 1985 | 1990 | 11 | 2 | Didenko<br>Aleksy     | Olmalik<br>shahar<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi           |
| 3                 | “Munojat”<br>havaskorlik<br>jamoasi             | 1980 | 1994 | 16 | 2 | Shertayev<br>Ulug‘bek | Yuqori<br>Chirchiq<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 4                 | “Grayadushni<br>y”                              | 1964 | 1973 | 10 | 2 | Davronov<br>Abduvohid | Olmalik<br>shahar  |

|                   |   |      |      |    |   |                      |   |
|-------------------|---|------|------|----|---|----------------------|---|
|                   | havaskorlik jamoasi                     |      |      |    |   |                      | madaniyat va aholi dam olish markazi                  |
| 5                 | “Zarrin yaproqlari” havaskorlik jamoasi | 1984 | 1989 | 17 | 2 | Tojiboyeva Toshtilla | Yangiyo‘l tuman madaniyat va aholi dam olish markazi  |
| Farg‘ona viloyati |   |      |      |    |   |                      |   |
| 1                 | “Chodiri jamol” havaskorlik jamoasi     | 1989 | 1991 | 38 | 2 | Ahmedov Inom         | Marg‘ilon shahar madaniyat va aholi dam olish markazi |
| 2                 | “Kabutar” havaskorlik jamoasi           | 1989 | 1998 | 32 | 2 | Sultonov Murod       | Qo‘sh tepa tuman madaniyat va aholi dam olish markazi |
| 3                 | “Qo‘qon yori” havaskorlik jamoasi       | 2003 | 2007 | 13 | 2 | Qodirova Xursanoy    | Qo‘qon shahar madaniyat va aholi dam olish markazi    |
| 4                 | “So‘h                                   | 1998 | 2012 | 25 |   | B.                   | So‘x tuman  |

|                 |                                      |      |      |    |   |                        |  |
|-----------------|--------------------------------------|------|------|----|---|------------------------|--|
|                 | chashmasi”<br>havaskorlik<br>jamoasi |      |      |    |   | Abdullayeva            | madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi                    |
| Xorazm viloyati |                                      |      |      |    |   |                        |  |
| 1               | “Orazibon”<br>havaskorlik<br>jamoasi | 1985 | 1987 | 13 | 2 | O‘razboyeva<br>Tozagul | Xorazm<br>viloyati<br>ilmiy<br>metodik<br>markazi                |
| 2               | “Doston”<br>havaskorlik<br>jamoasi   | 1986 | 1996 | 14 | 3 | Madraimova<br>Zumrad   | Xiva tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi      |
| 3               | “Avazxon”<br>havaskorlik<br>jamoasi  | 1983 | 2004 | 9  | 2 | Normatov<br>Ro‘zimboy  | Shovot<br>tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi |
| 4               | “Xiva”<br>havaskorlik<br>jamoasi     | 1992 | 2008 | 17 |   | Allaberganov<br>M.     | Xiva tuman<br>madaniyat<br>va aholi<br>dam olish<br>markazi      |
| 5               | “Xorazm”<br>havaskorlik<br>jamoasi   | 1993 | 2013 | 25 |   | D.Ibrogimov<br>a       | Urganch<br>shahar<br>madaniyat<br>va aholi                       |

|                      |  |      |      |    |   |                  |  |
|----------------------|--|------|------|----|---|------------------|--|
|                      |  |      |      |    |   |                  | dam olish markazi                                    |
| 6                    | “Sayqal” havaskorlik jamoasi               | 2008 | 2013 | 10 |   | Zulfiya Ortiqova | Xiva tuman madaniyat va aholi dam olish markazi      |
| Qashqadaryo viloyati |  |      |      |    |   |                  |  |
| 1                    | “Momogul” havaskorlik jamoasi              | 1986 | 1996 | 12 | 2 | Ahmedova Momogul | Qarshi tuman madaniyat va aholi dam olish markazi    |
| 2                    | “Chiroqchi chiroqlari” havaskorlik jamoasi | 1973 | 1980 | 14 | 2 | Qayumova M.      | Chiroqchi tuman madaniyat va aholi dam olish markazi |
| 3                    | “Zanjirsaroy” havaskorlik jamoasi          | 1995 | 2007 | 18 |   | Ma’diyev Fozil   | Muborak tuman madaniyat va aholi dam olish markazi   |

## Havaskorlik to'garaklarida qiziqishning ehtiyojga aylanish omillari



**5150700 – “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” таълим йўналиши битирувчиси Иргашев Қобил Неъматуллаевичнинг “Маданият ва аҳоли дам олиш марказлари фаолиятида бадий-ижодий жамоаларнинг ўрни” мавзусидаги битирув малакавий ишига**

### **ИЛМИЙ РАҲБАР ХУЛОСАСИ**

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 2013 йил 14 мартдаги ПҚ–1920-сон қарори билан тасдиқланган “Обод турмуш йили” Давлат дастурининг 65-бандини бажариш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг шу йил 25 июнда “2013–2018 йилларда замонавий маданият ва аҳоли дам олиш марказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори қабул қилинган. Мазкур қарорда аҳолининг, айниқса ёш авлоднинг ўсиб бораётган маданий-маърифий эҳтиёжларини қондириш, уларнинг бўш вақтини самарали ва мазмунли ўтказишини ташкил этишга кўмаклашиш борасида бир қанча топшириқлар берилган бўлиб, ўтган давр мобайнида мазкур қарор ижроси юзасидан амалга оширилган ишларни танқидий ва таҳлилий ўрганилмаганлиги, юзага келаётган муаммоларнинг илмий асосланмаганлиги боис мазкур соҳа фаолиятини тадқиқ этиш ўз долзарблигини ошириб бормоқда. Шу маънода битирув иши мавзуси тўғри танланганлигини айтиб ўтиш лозим.

Битирувчи тадқиқот объекти ва предметини, мақсади ва вазифаларини тўғри белгиланган. Битирув иши мақсади юзасидан белгиланган вазифалар амалга оширилган.

Битирувчи ишнинг “Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида бадий иждодий жамоаларни ташкил этилиши ва уларнинг шаклланиши” деб номлаган биринчи боб икки қисмдан иборат бўлиб, уларда муаммонинг тарихий-назарий аспекти тадқиқ этилган ва ўз асосини топган. Бу тадқиқотчига муаммонинг замонавий кўринишларини тўғри ва аниқ мисоллар билан кўрсатиб беришга имкон берган.

Битирув ишининг “Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида бадий иждодий жамоаларни ташкил этишни шакллантиришнинг ижтимоий



омиллари” деб номланган иккинчи боб ҳам икки бўлидан иборат бўлиб, унда тадқиқотчи бугунги кун маданий ҳаётида Маданият ва аҳоли дам олиш марказларининг жамият ҳаётида тутган ўрни ва аҳамиятини тадқиқ этиб, аҳоли ўртасида бу сингари марказларга талабнинг ошиб бориши ва шу билан бирга марказларда бадиий ижодий жамоаларни ташкил этишни ижтимоий омилларини асосли таҳлил этган.

Тадқиқот иши тугалланган мазмунга эга, унда боб ва бўлимлар мантиқий кетма-кетликда шакллантирилган. Шунингдек, битирув ишининг илмий янгилиги, аҳамияти, натижаларга кўра ишлаб чиқилган таклиф ва тавсиялар ўринлидир. Шунингдек, бугунги кун соҳа тараққиётига доир давлатимиз томонидан қаратилаётган эътибор, халқ манфаати олий кадрият сафитида янада ўз аҳамиятини ошириши жараёнлари тадқиқот ишида ўз аксини топган.

Мазкур битирув ишида айрим жузъий камчиликлар, жумладан имловий ва техник хатолар мавжуд. Бироқ мазкур камчиликлар тадқиқотчининг ўз олдига қўйган мақсадини амалга оширишига, битирув ишининг мазмун-моҳиятини ёритиб беришига таъсир этмайди. Юқоридагиларни инобатга олиб мазкур малакавий битирув ишини ҳимояга тавсия этаман.

**“Маданият ва санъат муассасалари  
фаолиятини ташкил этиш ва  
бошқариш” кафедраси профессори, ф.ф.д.**



**С.Тўйчиева**

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Халқ ижодиёти” факультети “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш  
ва бошқариш” таълим йўналиши 4-курс бакалавриат босқичи битирувчиси  
Қ.Иргашевнинг “Маданият ва аҳоли дам олиш марказлари фаолиятида  
бадий ижодий жамоаларнинг ўрни” мавзуси бўйича ёзилган битирув  
малакавий ишига

### ТАҚРИЗ

Мазкур битирув малакавий ишида бадий ижодий жамоаларнинг маданият ва аҳоли дам олиш марказларидаги фаолиятини илмий амалий жиҳатидан ўрганиб чиқилган. Бу битирув малакавий иши кириш, 2та боб, 4 та параграф, хулоса ва таклифлар ҳамда адабиётлар рўйхатидан иборат. Битирув малакавий ишининг 1- бобида “Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида бадий ижодий жамоаларни ташкил этилиши ва уларнинг шаклланиши” босқичларини ва тарихий жараёнларини ўрганилган. 2- бобида “Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида бадий ижодий жамоаларни ташкил этишни шакллантиришнинг ижтимоий омиллари” тўғрисида фикр юритилган. Тарихий босқичлари ва ҳозирги кундаги ижтимоий омиллари билан биргаликда фойдали таклифлар ишлаб чиқилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 14 мартдаги ПҚ-1920-сонли, Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 25 июндаги 178-сонли қарори асосида замонавий маданият ва аҳоли дам олиш марказларида ҳаваскорлик жамоаларнинг фаолиятини ташкил қилиш ва уларни шакллантириш билан боғлиқ масалалар ва юзага келган муаммоларни илмий ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мавзунинг долзарблиги ва битирув малакавий ишга қўйилган вазифалар шулардан иборатки,

Биринчидан, Маданият ва аҳоли дам олиш марказларини мавжуд бадий ижодий жамоалар фаолияти билан уйғун ҳолда ташкил қилиш борасида амалга ошириш ишларини аниқлаш;

Учинчидан, аҳолининг бўш вақтлари ёки дам олишларида миллий қадриятларни ўзида мужассам қилган ҳаваскорлик жамоалари иштирокени йўлга қўйишнинг долзарблигини белгилаб қўйилиши муҳим ҳисобланади.

Ушбу мавзуни таҳлил қилишда ва уни ёритишда аждодларимизнинг китоблари, Республикаимизнинг Президенти Ш.М.Мирзиёев ва Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг асарлари ҳамда бошқарувга оид меърий-ҳужжатлар ўрганиб чиқилган ва таҳлил қилинган.

Битирув малакавий ишининг хулоса қисмида тадқиқот юзасидан умумий тавсиялар ва хулосалар берилган. Битирув малакавий иши талаб даражасида тайёрланганлигини инобатга олиб, ҳимояга тавсия этаман.

Маданият ва санъат муассасаларини  
ташкил этиш ва бошқариш кафедраси  
катта ўқитувчиси



Х.Шодиёв

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Халқ ижодиёти” факультети “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш  
ва бошқариш” таълим йўналиши 4-курс бакалавриат босқичи битирувчиси  
Қ.Иргашевнинг “Маданият ва аҳоли дам олиш марказлари фаолиятида  
бадий ижодий жамоаларнинг ўрни” мавзуси бўйича ёзилган битирув  
малакавий ишига

### ТАҚРИЗ

Битирув малакавий ишининг долзарблиги шундаки, бугунги глобаллашув, тезкор жараёнда бадий ижодий жамоалари фаолиятини фаоллаштириш, халқимизнинг бадий дидини шакллантириш, ижодкорлик қобилиятини ўстириш, миллий маданиятимиз ривожини масаласига алоҳида эътибор бериб, бадий ҳаваскорлик тўғрақларининг аҳамияти, ижтимоий ҳаётга муносабатларидаги ўзгаришлари маънавий ҳаёт билан диалетик боғлиқлиги, аҳамияти батафсил таҳлил этилиб илмий хулосалар берилишидадир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 14 мартдаги ПҚ-1920-сонли, Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 25 июндаги 178-сонли қарори асосида замонавий маданият ва аҳоли дам олиш марказларида ҳаваскорлик жамоаларнинг фаолиятини ташкил қилиш ва уларни шакллантириш билан боғлиқ масалалар ва юзага келган муаммоларни илмий ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мавзунинг долзарблиги ва битирув малакавий ишга қўйилган вазифалар шулардан иборатки,

Биринчидан, Республикадаги бадий ижодий жамоаларнинг фаолияти бундан кейин маданият ва аҳоли дам олиш марказларида шакллантириш муҳим эканлиги тақозо қилмоқда;

Иккинчидан, Маданият ва аҳоли дам олиш марказларини мавжуд бадий ижодий жамоалар фаолияти билан уйғун ҳолда ташкил қилиш борасида амалга ошириш ишларини аниқлаш;

Учинчидан, аҳолининг бўш вақтлари ёки дам олишларида миллий қадриятларни ўзида мужассам қилган ҳаваскорлик жамоалари иштирокини йўлга қўйишнинг долзарблигини белгилаб қўйилиши муҳим ҳисобланади.

Маданият ва аҳоли дам олиш марказларида фаолият олиб борадиган ҳаваскорлик жамоалари бўйича тадқиқот ишлари олиб борилган.

Ушбу мавзунинг таҳлил қилишда ва уни ёритишда аждодларимизнинг китоблари, Республикаимизнинг Президенти Ш.М.Мирзиёев ва Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг асарлари ҳамда бошқарувга оид меърий-ҳужжатлар ўрганиб чиқилган ва таҳлил қилинган.

Битирув малакавий ишининг хулоса қисмида тадқиқот натижасидан умумий тавсиялар ва хулосалар берилган. Битирув малакавий иши талаб даражасида тайёрланганлигини инобатга олиб, ҳимояга тавсия этаман.

Тошкент маданият коллежи  
директори, профессор



С.Жумаев